

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

IJTIMOIIY FANLAR KAFEDRASI

A. To‘rayev, F. Abdusamatov

Siyosatshunoslik fanidan

SIYOSIY HOKIMIYAT
mavzusi bo‘yicha

USLUBIY QO‘LLANMA



JIZZAX -2013

Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi : A. To‘rayev, F. Abdusamatov.
Taqrizchi: f.f.n. A.Amanlaev

Muharrir: s.f.n. A.Saidqosimov

Ushbu uslubiy qo‘llanma siyosatshunoslik fanining “Siyosiy hokimiyat” mavzusi bo‘yicha ma‘ruzalar o‘qish va seminar mashg‘ulotlarida foydalanish uchun mo‘ljallanilgan.

Uslubiy qo‘llanma “Siyosatshunoslik” fani o‘qituvchilari, mazkur sohaga qiziquvchilar va barcha talabalar uchun mo‘ljallanilgan.

Uslubiy qo‘llanma A.Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat pedagogika instituti o‘quv metodik kengashining 2013 yil -son majlisida muhokama etildi va chop etishga tavsiya etildi.

KIRISH

Ma'lumki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangilanish va taraqqiyot siyosatining strategik maqsadi – huquqiy demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iborat. Siyosatshunoslikni o'rganish orqali mamlakatimizning siyosiy va davlat qurilishining o'ziga xos xususiyatlarini bilib olish mumkin bo'ladi. Bugungi kunda siyosatshunoslikning asosiy tushunchalarini, ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi siyosiy faoliyat, siyosiy hokimiyat, davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlarining ish usullarini, siyosat va insonning, davlat va jamiyatning o'zaro munosabatini anglashga tobora ko'proq ehtiyoj paydo bo'lmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "... dunyoda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jarayonida egallab turgan o'rnimizni xolisona va tanqidiy baholashimiz, tobora oshib borayotgan hayot talablariga javob berishimiz, kechayotgan davr bilan hamqadam bo'lishimiz"¹-talabi amalga oshirilishi dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

Ushbu uslubiy tavsiya O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011 yil 11 sentabrdagi 392-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Siyosatshunoslik fani namunaviy dasturi asosida tayyorlangan.

Tavsiya etilayotgan ushbu uslubiy tavsiya mamlakatimizda va dunyoning boshqa mamlakatlarida siyosiy fanni o'qitish tajribasini hisobga olib, buyuk mutafakkirlarning siyosiy qarashlariga va bugungi kun siyosiy fanida erishilgan yutuqlarga, milliy istiqlool g'oyasi tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqilgan.

MAVZUNING ASOSIY MAZMUNI

Hokimiyat tushunchasi, u bilan bog'liq boshqa tushunchalar. Hokimiyat va siyosatning o'zaro bog'liqligi. Hokimiyat sub'ekti, ob'ekti, resurslari tushunchasi. Siyosiy hokimiyat va hokimiyatning boshqa turlari (iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy v.h). Siyosiy hokimiyatning xususiyatlari.

Hokimiyat nazariyalari evolyusiyasi: hokimiyatning talqinlari; hokimiyatning islomiy talqini; hokimiyat talqinining Yangi davrda G'arbiy Yevropa mutaffakkirlari qarashlarida o'zgarishi. XX asrning 50-60-yillarida hokimiyat haqida olib borilgan munozara. Hokimiyat «qiyofalari» to'g'risidagi baxs. «Hokimiyat shakli» tushunchasi. Hokimiyat shakllarining turli asoslar negizida turlicha turkumlashuvi.

Davlat, siyosiy partiyalar, manfaat guruhlari - hokimiyat shakllari ekanligi. Indivud va tashkilot hokimiyati. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy v.b. hokimiyatlar. Hokimiyatning yangi shakllari. Kuch, zo'rlik, manipulyasiya, ishontirish va avtoritet - hokimiyat shakllari sifatida. Davlat hokimiyati, hokimiyatning legitimligi, huquqiy davlat.

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T. -O'zbekiston. 2010. 6- bet.

TAYANCH MA'RUZA MATNI

Reja:

1. Hokimiyat, uning shakllari va imkoniyatlari. Hokimiyat haqidagi siyosiy nazariyalarning mohiyati
2. Siyosiy hokimiyat, uning mohiyati, belgilari va siyosiy boshqaruvdagi o'rni
3. Davlat hokimiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari. Davlat hokimiyati haqidagi siyosiy nazariyalar.
4. O'zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayoni

1. Hokimiyat, uning shakllari va imkoniyatlari. Hokimiyat haqidagi siyosiy nazariyalarning mohiyati

Tayanch tushunchalar: Hokimiyat, hokimiyatning maqsadi, hokimiyat qiyofasi, pozitiv-sotsiologik talqin, teologik (diniy nuqtai-nazaridan) talqin, bixevioristik talqin, psixologik talqin, hokimiyatning guruh konsepsiyasi, hokimiyatning noguruhiiy konsepsiyasi — "nol miqdori", hokimiyat sub'yekti, hokimiyat ob'yekti hokimiyat resurslari, utilitar resurslar, majburlovchi resurslar, sotsial resurslar, madaniy-axborot resurslar, demografik resurslar.

Nazorat savollari

1. Hokimiyat tushunchasini ta'riflang.
2. Hokimiyatning ob'yekti va sub'yektini misollar orqali tushuntirib bering.
3. Hokimiyatning qanday resurslari(imkoniyatlari) mavjud?
4. Hokimiyat qanday funksiyalarni bajaradi?

Referat mavzulari

1. Hokimiyat vujudga kelishining tarixiy ildizlari.
2. Xalq hokimiyat manbai sifatida.
3. Rokimiyat tushunchasiga oid eng muhim yondashuvlar va ularning o'ziga hos xususiyatlari
4. Hokimiyatning zamonaviy nazariy tahlili.
5. Hokimiyatning islomiy talqini.

Siyosatshunoslikning asosiy masalasi «hokimiyat» bo'lib, bu atama juda ko'p ma'nolarga ega. Tabiatshunoslar tabiat ustidan hukmronlik qilish haqida, iqtisodchilar xo'jalik hokimiyati haqida, faylasuflar jamiyat ob'yektiv qonunlarining hukmronligi haqida, huquqshunoslar davlat hokimiyati haqida, ruhshunoslar insonning o'z-o'ziga hukmronlik qilish, pedagoglar esa ota-onalarning bolalar ustidan hukmronligi haqida so'z yuritadilar.

"Hokimiyat" tushunchasiga aniq ta'rif berish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega. Jamiyatda chuqur islohotlar o'tayotgan bir davrda islohotlarning ko'lami, sur'ati va samaradorligi hokimiyat sohasidagi o'zgarishlar ko'lami, sur'at va samarasiga to'g'ri proporsional ekanligini juda ko'p mamlakatlar misolida

ko‘rishimiz mumkin. Shuning uchun, siyosatda hokimiyatning o‘rnini, vazifalarini va, umuman, bu tushunchaning mazmunini to‘g‘ri anglash, siyosiy jarayonlar to‘g‘risida hukm yuritish, uni to‘g‘ri baholash imkonini beradi.

Ko‘pgina olimlar hokimiyatni siyosatning asosiy masalasi, uning bosh muammosi, deb hisoblaydilar. Hokimiyat siyosatda odamlar faoliyatining alohida bir sohasi sifatida shakllanish imkonini beradi.

Jamiyatda, odamlar o‘rtasidagi munosabat tarzida vujudga keluvchi hokimiyat dastlab siyosiy tabiatga ega bo‘lmagan, chunki u, asosan, mos tushuvchi manfaatlarni tartibga solgan (oqsoqollar, qabila boshliqlari, avliyolarning avtoritetga asoslangan anonim hokimiyati).

Jamiyatning rivojlanishi, uning keyingi murakkablashuvi hokimiyatning samaradorligini oshirish maqsadida markazlashuviga olib keladi. Hokimiyat qabila boshliqlari, beklar, xonlar, guruhlar qo‘lida to‘planadi (individual hokimiyat). Mana shu hokimiyatning mukammal shakllarini topishga intilish, ko‘pgina sharq mutafakkirlari asarlarida uchraydi. Ammo, ijtimoiy tengsizlikning ortib borishi, ijtimoiy tizimlarning murakkablashishi hokimiyatning institutsional shakllarini keltirib chiqaradi. Hokimiyat boshqaruv, barqarorlik, muvofiqlashtirish vazifalarini bajaruvchi maxsus institutlarga tayana boshlaydi.

Aslida insoniyat tarixini hokimiyatsizlik (tartibsizlik, anarxiya) va hokimiyat mustabidligi (diktatura) o‘rtasida eng ma‘qul, o‘rta miyona echimni topishdan iborat, deb aytish to‘g‘ri bo‘ladi.

Hokimiyat tabiati doimo o‘zgaruvchandir. Bu M.Dyuverjega uning ikki qiyofasi bor yanusga o‘xshatish imkonini bergan: «Ikki qiyofali yanus tasviri hokimiyat to‘g‘risida haqiqiy tasavvurlarni beradi. Bir tomondan bu bir guruhning o‘z manfaati yo‘lida ikkinchi Dunyo ustidan hukmronligi, ikkinchi tomondan bir guruhning o‘z manfaati yo‘lida ikkinchi guruh ustidan hukmronligi, ikkinchi tomondan – umumiy tartibni saqlash, barchaning manfaatii yo‘lida barchaning manfaatini birlashtirish vositasi. U yoki bu tomonning nisbati juda xilma-xil, davrlar, sharoitlar va mamlakatlardan kelib chiqib, hokimiyatning bu ikki tomoni doimo mavjuddir».

Demak, aytish mumkin-ki, hokimiyat – yaxshi ham, yomon ham emas, u betarafdir. Uning tabiati jamiyatda mavjud ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyatini belgidlaydi.

Siyosiy fikr tarixida hokimiyatga e‘tibor juda qadimdan mavjud. Hokimiyat to‘g‘risida fikr-mulohazalarni biz dunyodagi eng qadimgi qo‘lyozma manbalarida uchratamiz. O‘rta asr mutafakkirlari ham hokimiyat haqida ko‘p va ibratli fikrlarni qoldirganlar. Ularning aksariyatini biz, bugungi kun nuqtai nazaridan, me‘yoriy yondashuvlar qatoriga kiritamiz, chunki mualliflar, «hokimiyat» tushunchasiga ilmiy kategoriya tarzida qaramaganlar va uni ta‘riflashga harakat qilmaganlar.

Hokimiyat tushunchasi siyosiy fan kategoriyalari tizimida markaziy o‘rinni egallaydi. Energiya tushunchasi fizikada, pul tushunchasi iqtisodiy nazariyada qanday o‘rinni egallasa, bu tushuncha ham siyosiy fanda xuddi shunday o‘rinni

egallaydi. Biz quyida hokimiyat tushunchasiga oid eng muhim yondashuvlarni ko'rib chiqamiz.

1. Hokimiyatning eng ko'p tarqalgan ta'riflaridan biri - **pozitiv-sotsiologik talqindir** (nemits faylasufi va sotsiologi M. Veber). Bu talqinda hokimiyat biror individning muayyan ijtimoiy sharoitda boshqa individga o'zining irodasini o'tkazish qobiliyati sifatida tushuniladi. Hokimiyat munosabatlarining asosini o'zaro ta'sir doirasiga kiritish munosabatlari tashkil etadi. Bunday munosabatlar hokimiyat sub'ekti va ob'ekti o'rtasida qaror topadi.

2. Hokimiyatning **teologik (diniy nuqtai-nazaridan) talqini** (B. Rassel). Bu talqinda hokimiyat muayyan mavsadga erishish, ko'zda tutilgan natijalarga ega bo'lishning diniy yoki ilohiy nuqtai-eazaridan tafsiflanadi. Qisqa qilib aytganda, hokimiyat- bu ko'zlangan maqsadlarini ro'yobga chiqarishdan iboratdir. Teologik ta'rifda hokimiyat keng ma'noda talqin etiladi. Bunda hokimiyat nafaqat kishilar o'rtasidagi munosabatlarning, balki insonning atrof-muhit bilan, xudo bilan o'zaro munosabatlarini ham o'z ichiga oladi.

3. **Bixevioristik talqin**. Bu talqinda hokimiyat sub'ekt xulq-atvorining maxsus turi sifatida olib qaraladi. Bunda birovlar buyuradilar, boshqalar bo'ysunadilar. Bixevioristik yondashuv hokimiyatni tushinishni individuallashtiradi, uni real shaxslarning o'zaro harakatlaridan iborat deb qaraydi. Hokimiyatning keng tarqalgan bixevioristik talqinini G. Lassuel taklif etgan. U hokimiyatning paydo bo'lishi uchun dastlabki impulsni individga insonga xos bo'lgan hokimiyatga intilishlik (iroda) va "siyosiy energiyaga" egalik qilishlik beradi, deb hisoblaydi. Inson hokimiyatda hayotni yaxshilash: boylilik, obro' orttirish, erkinlikka, xavfsizlikka va hokazolarga erishish vositalarini ko'radi.

4. Hokimiyatning **psixologik talqini** (Z. Freyd, K. Gustav YUng, K. Xorni). Bu talqin hokimiyatni real individlarning xulq-atvori sifatidagi bixevioristik tushunishidan kelib chiqib, ushbu xulq-atvorning sub'ektiv tomonini, kishilar ongi va ruhiyatida ildiz otgan hokimiyatning manbaini ochib tashlashga harakat qiladi. Bu xildagi eng ko'zga ko'ringan yo'nalishlardan biri- psixoanalizdir. U hokimiyatga intilishni va, ayniqsa, uni egallashni jismoniy yoki ma'naviy zaiflikni sub'ektiv kompensatsiya qilish vazifasini bajaradigan psixik energiya sifatida talqin etadi. Hokimiyat irodalarning o'zaro harakati- birovlarni bo'ysunishga, boshqa birovlarning "Ixtiyoriy qo'shilishga" tayyorgarligi sifatida vujudga keladi

5. **Hokimiyatning tizimli talqini**. Bu talqin hokimiyatning bixevioristik va psixologik ta'riflaridan farq qiladi. Agar bu ikki yo'nalish real kuzatishlarga tayanib hokimiyatni tushunishda quyidan yuqoriga, individlardan jamiyatga qarab borishni talab qilsa, tizimli usul esa hokimiyatni individual munosabatlardan emas, balki sotsial tizimdan hosil bo'lganligidan kelib chiqadi. U hokimiyatni tizimli qabul qilgan jamoa maqsadlarini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan majburiyatlarni uning elementlari tomonidan bajarilishini ta'minlash qobiliyati sifatida olib qaraydi.

6. **Hokimiyatning tuzilmaviy-funksional talqini** (Amerika sotsiologi T. Parsons). Bu talqin hokimiyatni keng bo'lmagan sub'ektlarning munosabati, sotsial tashkilotning xususiyati sifatida, insonlar birligining o'zini o'zi tashkil etish,

uyushtirish, safarbar qilish uslublari sifatida olib qaraydi. Insonning jamoa bo'lib yashashini, ko'p kishilarning birgalikdagi hayotini hokimiyatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Jamiyat turli elementlardan iborat bo'lgan yaxlitlikdir. Uning o'zi quyidan yuqoriga qarab tuziladi, boshqaradigan va ijro etuvchi sotsial rollarni tabaqalashtiradi. Hokimiyat- bu resurslarni, ta'sir ko'rsatish vositalarini safarbar qilishga imkon beruvchi sotsial maqomlar, rollarning xususiyatidan iboratdir.

7. **Relyasion (fr.- munosabat) ta'rif.** Bu ta'rif hokimiyatni ikki sherik o'rtasidagi munosabat sifatida olib qaraydi. Bunda ulardan biri ikkinchisiga belgilovchi ta'sir o'tkazadi. Bu holda hokimiyat uning sub'ekti va ob'ekting o'zaro harakati sifatida namoyon bo'ladi, sub'ekt muayyan vositalar yordamida ob'ektni nazorat qiladi.

Sharqona talqin (Kuntszi) bo'yicha, hokimiyat davlatda mujassam, davlat hokimiyati ota hokimiyatiga, hukmdor va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarga tengdir.

Hukmdorning otalarcha g'amxo'rligi, fuqarolarning farzandlik mehr-muhabbati-hokimiyatining asosiy tamoyilidir. Bu tamoyilning buzilishi hokimiyatning emirilishi, jamiyatda tartibsizlik, beqarorlikning hukmronligi demakdir.

Mazkur talqinga binoan, hukmdor-mamlakat, el-yurt xalqning otasidir. Uning muqaddas burchi—mamlakatga otalik qilish, ya'ni xalqni to'g'ri yo'lga boshlash va yomon yo'ldan qaytarish, Vatanning farovonligini, tinch- totuvligini, osoyishtaligini ta'minlashdir. Xalq esa, hukmdorning farzandi va tayanchidir. U farzandlik burchini bajarishi, ya'ni hukmdorning ishonchini oqlashi, mas'uliyatli bo'lishi, buyruqlarga, ko'rsatmalariga so'zsiz itoat etishi va uni bajarishi zarur.

Islomiy talqinga ko'ra, butun borliqdagi eng oliy hokimiyat Alloh taologa tegishlidir. Undan boshqa 18 ming olamda oliy hokimiyatga ega bo'lgan zot yo'q.

Allohnin irodasiga osmonlar-u erdagi barcha narsalar, hukmdorlar ham, fuqarolar ham so'zsiz buysunadi. Har bir inson, jamiyatda tutgan o'rnidan qat'iy nazar, barcha yaxshiy-u yomon ishlari uchun yaratuvchi oldida javobgardir.

Allohnin yo'rig'iga amal qilgan kishilar bu dunyo-yu u dunyoda saodatmand bo'ladi, uning irodasiga bo'ysunmay, haddan oshib, havo nafsga berilib yurganlar esa, bu dunyoda g'azabga uchrab, xor—zor bo'ladi, u dunyoda azob- uqubatga duchor bo'ladi. Mazkur talqinga ko'ra, hukmdor—Allohnin yerdagi soyasidir. Uning vazifasi Alloh xohish —irodasining aniq ado etilishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishdan, uning yo'l- yo'rig'ni joriy etishdan iboratdir.

Har bir mo'min musulmon—Allohnin bandasidir. Uning vazifasi—Alloh, uning Rasuliga va o'z rahbarlariga itoat qilishdir. Dunyoviy hokimiyat —Alloh taolo ko'rsatgan hidoyat yo'ldan boruvchi, u man etgan hodisalar—zalolat, razolat, nohaqlik, tartibsizlik, yovuzlik, tubanlik, munofiqlik bilan kurashuvchi va tinchlik, osoyishtalikni, farovonlikni ta'minlovchi vositadir.

Ammo, jamiyatlar rivojlanishi bilan hokimiyat tabiati, mazmuni, talqinlari ham o'zgarib bordi. Hokimiyat ilohiy emas, ijtimoiy hodisa sifatida qarala boshlandi.

Yevropada shakllangan zamonaviy siyosiy tizimlarning rivoji, hokimiyat mazmuni va shakllarida katta o'zgarishlar yuz berishiga olib keldi. G'arb ijtimoiy tizimlarida hokimiyat, xususan, siyosiy hokimiyat eng oliy ijtimoiy qadriyat darajasiga ko'tariladi. Natijada, bu davrda, yashab ijod etgan jamiyatshunos olimlarning ko'pchiligi-hokimiyatni ta'riflashga uringanlar.

N.Makiavelli hokimiyat deganda, davlat hokimiyatini tushunadi. Uningcha, hukumatning o'z fuqarolarini boshqara olish qobiliyati-hokimiyat bo'lib, davlat, siyosatning maqsadi-barcha vositalar bilan hokimiyatni kuchaytirishdir. "Hokimiyatning quroli hukmronlikdir, hokimiyatning asosi" yaxshi «qonunlar» va "yaxshi qo'shindir". Hokimiyat odamlar ehtiroslarini tinglovchi va ularda fuqarolik sifatlarini tarbiyalovchi kuchdir.

T. Gobbs hokimiyatni birinchi marta tushuncha sifatida ta'riflashga uringan. "Inson hokimiyati, - deb yozadi u,- kelajakda qandaydir imtiyoz, foydaga erishish uchun undagi hozir mavjud vositalardir.

Keyingi bosqich—M.Veber. Uning tahlilida hokimiyat tushunchasi zamonaviy aniqlikka ega bo'ldi. Veberda hokimiyat "Aktor ijtimoiy munosabatda, qarshilikka qaramay, o'z irodasini amalga oshirish ehtimoli, bu ehtimol nimaga asoslanishidan qat'iy nazar". Veber ta'rifida hokimiyatning uch eng muhim sifati ko'rsatiladi: 1) hokimiyat individlarga xos xususiyat emas, ular o'rtasidagi munosabatlar doirasida mavjud; 2) hokimiyat imkoniyat, ehtimollik terminlarida ta'riflanishi kerak; 3) hokimiyatning asosini hamma narsa, xususiyat yoki munosabat tashkil etishi mumkin. Gobbs kabi M.Veber ham hokimiyatni individlar o'rtasidagi (ammo guruhlar yoki jamoalar o'rtasidagi emas) atayin assimetrik (tengsizlik asosidagi) munosabat, deb tushunadi. Avtoritetdan farq qilib, hokimiyat ijtimoiy mavqelar yoki rollar bilan emas, individlarning shaxsiy sifatlari bilan bog'liq. Ammo, Veber hokimiyat tushunchasini mavhum hisoblab, ko'proq hukmronlik terminini ishlatishni ma'qul ko'rgan.

Hokimiyatning zamonaviy nazariy tahlilida ikki asosiy an'ana yaqqol ko'zga tashlanadi:

Birinchisi, hokimiyatning guruh konsepsiyasi (Dj. Skott atamasi) yoki "realizm an'anasi" (R.Dal atamasi), deb atalishi mumkin. U ibtidosini T.Gobbs, M.Veberdan olib, X.Lassuel va E.Keplen, R.Dal, D.Kartrayt, S.Loks, E.Giddens v.h.lar tadqiqotlarida namoyon bo'lgan. Ular hokimiyatni individlar o'rtasidagi mavjud yoki bo'lishi mumkin bo'lgan ixtilofni o'z ichiga oluvchi tengsizlik munosabati deb baholashadi. Hokimiyat shunday ta'sir doirasida vujudga keladiki, unda subektlardan biri ikkinchisiga uning qarshiligiga qaramay ta'sir eta olish qobiliyatiga ega bo'ladi. Hokimiyat kimdandir ustunlik, "nol miqdori" munosabati sifatida ta'riflanadi. ("Nol miqdori" qaysidir individ va guruhlar hokimiyatining ortishi boshqa individlar va guruqlar hokimiyatining kamayishini anglatadi).

Ikkinchi an'ana "hokimiyatning noguruhiy konsepsiyasi —"nol miqdori" g'oyasini inkor etadi va hokimiyat barchaning foydasiga xizmat qila olishidan kelib chiqadi. Bunda hokimiyat butun jamoaga tegishli manba, butun jamoaning biron foydaga erishishi qobiliyati sifatida qoraladi. Hokimiyatning legitim xarakteri uning

alohida individlar, guruhga emas, butun jamiyatga tegishli ekanligida, deb ta'kidlanadi. Bu qarashlarning ibtidosini biz Aflotun, Arastuda uchratsak, zamonaviy mualliflardan T.Parsons, X.Arendt va qaysidir darajada M.Fukolarni shu nazariya tarafdorlari, deb ayta olamiz.

Bunday tahlil asosida Parsons hokimiyatni an'anaviy ta'riflardan ancha farqli usulda ta'riflaydi. Hokimiyat aktorlar yoki munosabatlar xususiyati emas, tizimlarning xususiyati (resursi) sifatida ta'riflanadi. Hokimiyat "tizim elementlari o'z burchlarini bajarishlarini ta'minlashga bo'lgan umumiy qobiliyat bo'lib, kollektiv maqsadlarga erishishga intilgani uchun legitimlashadi va itoat etilmagan hollarda sanksiyalar qo'llashni nazarda tutadi, boshqarish vositalarini xarakterlaydi. Ular bir funksiyani bildirganlari uchun sinonim sifatida qo'llanishlari mumkin, lekin mohiyati jihatidan turli holatlarni ifodalaydilar. Ularni aralashtirish nafaqat "lingvistik karlikni" balki "siyosiy ko'rlikni" ham, ya'ni siyosiy jarayonlarni aks ettirishdagi "ko'rlikni" anglatadi. Negaki, bunda asosiy siyosiy masala — "kim kimni boshqarayapti?" degan savol bo'lib qoladi. Uning fikricha bu, bosh masala emas.

Parsonsdan farqlicha, Arendt hokimiyat va zo'rlikni aniq farqlaydi: zo'rlik-mohiyatiga ko'ra doimo erishayotgan maqsadlari orqali oqlashga muhtoj. Hokimiyat esa kelishuvga asoslangani uchun, oqlanishga emas, legitimlikka muhtoj. U nimagadir erishish vositasi emas. U umumiy iroda va ijtimoiy birlikni amal qilishini ta'minlaydi, zo'rlik va hokimiyat ko'pincha qo'lma-qo'l, yonma-yon kelishsa-da, ular bir-biriga qarama-qarshidir. Hokimiyat zo'rlikka asoslanmaydi, aksincha zo'rlik hokimiyatni emirishi mumkin, ammo yarata olmaydi. Bunday fikr mantig'idan quyidagi xulosa kelib chiqqan: istibdodga asoslangan tuzum zo'rlikka eng ko'p suyangan va hokimiyatga eng kam darajada ega boshqaruv shakli.

Hokimiyatning mazmuni, mohiyati, chegaralariga doir bahs davomida hokimiyat "qiyofalari" haqida ham munozara yuritildi. Xususan, amerikalik politolog Robert Dal hokimiyatning bir o'lchovli modelini yaratadi va unga "maqsadlar borasidagi ochiq ixtilof" sifatida qaraydi. Bu — hokimiyatning birinchi qiyofasi. Ya'ni siyosiy hokimiyat bir guruh indvidlarning ikkinchi (boshi) guruhga o'z maqsad — manfaatlariga mos qarorlar qabul qilish orqali irodalarini o'tkaza olishdir.

Boshqa amerikalik tadqiqotchilar P.Baxrax va M.Barat'slar hokimiyatning ikkinchi qiyofasi ham mavjudligini, u qarorlarni qabul qilmaslik vaziyatida namoyon bo'lishini ta'kidladilar. Ya'ni o'zi uchun xavfsiz muammolarni ommaviy muhokamaga kiritib, bunga xizmat qiluvchi qadriyatlar va institutlarni yaratadi va mustahkamlaydi. U buning uddasidan qay darajada chiqa olsa, shu darajada echimi manfaatlariga ziyon etkaza oladigan siyosiy hokimiyat sub'yektlariga davlat va uning institutlari, siyosiy elitalar, siyosiy yetakchilar, siyosiy partiyalar kiradi. Hokimiyat egalari sifatida subektlar bir qator belgilarga ega bo'lishi kerak: hokimlik qilish istagi va o'z zimmasiga mas'uliyatni ola bilish, bilim, imkoniyatlarni ishga sola bilish, avtoritetiga ega bo'lish singari.

Demak, xokimiyat tushunchasi keng va xilma-xildir. Xokimiyatga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

«Hokimiyat - bu kishilar, ijtimoiy guruxlar hamda sinflarning faoliyatiga, xalq-atvoriga, harakatlariga iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy, ijtimoiy mexanizmlar, shuningdek, kuch ishlatish, zo'rlik qilish, ishontirish qobiliyatlari bilan ta'sir etuvchi faoliyatning alohida shaklidir».

Hokimiyat - yaxlit va bir butun ijtimoiy hodisadir. Bu esa uning muayyan tarkibiy qismlardan tashkil topganligini inkor etmaydi.

Hokimiyat - bir qator tuzilmalardan iborat bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Uning tarkibiga sub'yekt, ob'yekt va resurslar kiradi.

Hokimiyatning asosiy tarkibiy qismlaridan biri- sub'yekt (aktor) dir. U hokimiyatning bevosita tashuvchisidir.

Sub'yekt - hokimiyatning faol, yo'naltiruvchi qismidir. U alohida inson, sotsial guruh, kishilarning birligi, misol uchun xalq yoki jahon hamjamiyati, davlat institutlari, siyosiy partiyalar bo'lishi mumkin. Biroq, har qanday inson hokimiyatning sub'ekti bo'lavermaydi. U hokimiyat sub'yekti bo'lishi uchun qator sifatlarga ega bo'lishi kerak. Avvalambor bu hokimlikka xohish-istak, ko'rsatmalar yoki buyruqlarda ko'rinadigan hokimlik qilish irodasidir. Ko'pchilik kishilar hokimiyatga egalik qilishdan qoniqish his etmaydilar. Ular uchun hokimiyat o'z-o'zidan boylik hisoblanmaydi. Ko'plar agar hokimiyat turli imtiyozlarni olish uchun imkoniyatlar ochib bermaganda umuman rahbarlik lavozimlaridan va ular bilan bog'liq bo'lgan ma'suliyatdan o'zlarini olib qochgan bular dilar. Ular uchun hokimiyatga intilish instrumental xarakterga ega, ya'ni boshqa bir maqsadga erishish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Hokimiyat sub'yekti rahbarlik qilishga xohish-istak va ma'suliyatni o'z bo'yniga olishlikdan tashqari u bilimdon bo'lishi, ishning ma'no-mazmunini, qo'l ostidagilarining holati va kayfiyatini bilishi, resurslardan foydalana ola bilishi, obro'-e'tiborli bo'lishi kerak. Jamiya uchun hokimiyat sub'ektining uyushqoqligi juda ham muhim. Albatta, hokimiyatning real tashuvchilarini ushbu sifatlar bilan bir xil darajada ta'minlangan deb bo'lmaydi.

Hokimiyat sub'yektlari murakkab ko'p darajali xarakterga egadirlar. Uning boshlang'ich aktorlari- individlar va ijtimoiy guruhlar, ikkinchilari- siyosiy tshkilotlar, eng yuqori darajadagi sub'yektlari - siyosiy elitalar va liderlardir. Ushbu darajalar o'rtasidagi aloqalar doimo bir tekisda va silliq ketavermaydi. Bu aloqalar buzilishi ham mumkin. Masalan, liderlarning ommadan, hatto o'zining partiyasidan uzilib qolish hollari ham tez-tez uchrab turadi.

Hokimiyat sub'yekti ob'yekt bilan munosabatlarda birinchi darajali rol o'ynaydi. U hokimiyat munosabatlarini ko'rsatmalar (buyruq) orqali ifodalaydi. Bu ko'rsatmalarda hokimiyat ob'yektining xulq-atvori, buyruqni bajarganlik yoki bajarmaganlik uchun rag'batlantiruvchi va jazolash choralari ko'zda tutiladi. Ijro etuvchilarning munosabati buyruqdagi mavjud talablarning xarakteriga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Ob'yekt - hokimiyatning ikkinchi muhim elementidir. U hokimiyat sub'yekti qarorlarining bevosita boshqaruvchisidir. Ob'yekt ham, xuddi sub'yekt kabi hokimiyatning ajralmas tarkibiy qismidir. Bu elementsiz hokimiyatni tasavvur etib

bo'lmaydi. Hokimiyat ob'yektini quyidagilar: individ, sotsial guruh, sinf, jamiyat tashkil etadi.

Hokimiyat sub'yekting sifati, faolligi jamiyatning siyosiy madaniyati bilan belgilanadi. Bu madaniyat qanchalik yuqori bo'lsa, mustabid tuzumga ehtiyoj shunchalik kam bo'ladi.

Eng zamonaviy hokimiyat konsepsiyalari hokimiyatning "kommunikativ" jihatiga diqqatni qaratar ekan, hokimlik munosabatlari ikki tomonlama, assimetrik (tengsiz) munosabatlar ekanligini ta'kidlashadi. Hokimiyatshunoslikda mashhur misolni biz ham keltiramiz: Chorrahadagi nozir qo'lidagi tayoq, hushtak, qo'l ishoralari bilan haydovchini to'xtashga, o'nga—chapga burilishga v h. majbur qladi. Nozir iltimos yoki taklif qilmaydi, u buyuradi. Militsiya hodimi (subekt) shofyor va yo'lovchi (obekt) uchun tushunarli imo-ishora tilida gaplashadi va shu tariqa o'z hokimiyatini amalga oshiradi. Ob'yektning sub'yekt irodasiga bo'ysunishga tayyorligi hokimiyat mavjudligi yoki e'tirofining muhim shartidir. Agar bunday bo'lmaganda edi militsioner shofyorni o'z aytganini kuch bilan qildirishi ham mumkin edi (uni qo'lidagi tayoq bilan urishi, qamashi, otib tashlashi). Lekin, bu holatda gap hokimiyat to'g'risida emas, kuch, zo'rlik ishlatish haqida ketgan bo'lar edi. Ushbu misoldan kelib chiqadigan xulosa shuki, hokimiyat subekt va obekt o'rtasida, asosan, ixtiyoriy ikki tomonlama muloqot natijasida vujudga keluvchi hodisadir.

Hokimiyatning asosini yoki manbaini resurslar tashkil etadi. Bu resurslar hokimiyat sub'ekti tomonidan hokimiyat ob'ektiga ilgari surilgan masalaga erishish maqsadida ta'sir ko'rsatish uchun foydalaniladi. Resurslar kishilarni rag'batlantirish, jazolash yoki ishontirishda qo'llanilishi mumkin.

Hokimiyat resurslari xilma-xildir. Ular ilmiy adabiyotlarda bir necha turlarga, avvalambor o'tilitar, majburlovchi va me'yoriy resurslarga bo'linadi.

Utilitar resurslar - bu kishilarning kundalik ehtiyojlari va talablarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan moddiy va boshqa ijtimoiy vositalardir. Bu vositalardan kishilarni rag'batlantirish uchun ham, jazolash uchun ham foydalaniladi.

Majburlovchi resurslar - bu ma'muriy jazolash bilan bog'liq bo'lgan vositalardir. Bu vositalardan odatda o'tilitar resurs ish bermay qolganda foydalaniladi. Bunga iqtisodiy sanksiyalardan hayiqmaydigan (ish tashlovchilar) ishtirokchilarini sudga ta'qib etishni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Me'yoriy resurslar - insonning ichki dunyosi, qadriyatlar va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi vositalar kiradi. Ular bo'ysunuvchilarga rahbar va ijro etuvchilarning manfaatlarini tushuntirishga, hokimiyat sub'ekti harakatlarining ma'qullanishini, uning talablari qabul qilinishini ta'minlashga chaqirilgandir.

Ilmiy adabiyotlarda hokimiyatning resurslarini inson va jamiyat faoliyatining muhim sohalari- siyosiy-huquqiy, iqtisodiy, sotsial, madaniy-axborot, kuch ishlatuvchi sohalarga binoan turkumlashtirish ham keng tarqalgandir.

Siyosiy-huquqiy resurslar - bu ijtimoiy tartibni, xavfsizlikni, barqarorlikni, fuqarolarning tinch-osoyishtaligini, jamiyatning yaxlitligi va bir butunligini ta'minlovchi vositalardir. Bu vositalarga dasturiy hujjatlar, Konstitutsiya, qonunlar va

ularni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan masalalar kiradi.

Iqtisodiy resurslar - bu ijtimoiy va xususiy ishlab chiqarish va iste'mol qilish uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar, ularning umumiy ekvivalenti sifatida pullar, texnika, unumdor erlar, er osti qazilma boyliklari va hokazolar kiradi.

Sotsial resurslar - sotsial stratifikatsiyadagi sotsial maqom yoki rang, o'rinning amalga oshirilishi yoki pasayishi qobiliyatidir. Bu resurslar qisman iqtisodiy resurslarga mos keladi. Masalan, daromad va boylik iqtisodiy resurslar bo'lishi bilan birga sotsial maqomni ham tavsiflaydi. Biroq, sotsial resurslarga lavozim, obro', ma'lumot, meditsina xizmati, ijtimoiy ta'minot kabi ko'rsatkichlar ham kiradi.

Madaniy-axborot resurslar - bilim va axborot, hamda ularni olish va tarqatish vositalari: fan va ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va boshqalar tashkil etadi. Taniqli amerikalik olim O. Tofflarning e'tirof etishicha, XX asr oxiri-XXI asrning boshlarida bilim va axborot hokimiyatning muhim resursiga aylanadi. Hozirgi kunda postindustrial mamlakatlarda bilim va axborot hokimiyat amal qilishining belgilovchi omiliga aylangandir. An'naviy kuch va boylik o'zining ilgari ta'sirini yo'qotmoqda. Kim bilim va informatsiyaga ega bo'lsa, o'sha chinakamiga hukmronlik qiladi.

Kuch ishlatuvchi resurslar - bu qurol-yaroq, jismoniy majburlovchi muassasalar va buning uchun maxsus tayyorlangan kishilardir. Ularning o'zagini armiya, politsiya, xavfsizlik kengashi tashkil etadi. Resurslarning mazkur ko'rinishi hokimiyatning azaldan eng samarali manbai hisoblangan. Sababi, uning foydalanishi insonni oliy qadriyatlar - hayotdan, erkinlik va mol-mulkdan mahrum qilishga qodirligidir. Hokimiyatning turli resurslari odatda uning sub'ektlari, avvalo davlat idoralari tomonidan kompleks ravishda qo'llaniladi.

Demografik resurslar - hokimiyatning maxsus resurslaridir. Bu resurs boshqa resurslarni ishlab chiqaruvchi universal, ko'p funksiyali resursdir. Inson- moddiy boyliklarning yaratuvchisi, askar va partiya a'zosi, bilim va axborotning egasi va tarqatuvchisidir. SHaxs o'zining ko'p sonli qirralaridan birida- bironing irodasini amalga oshiruvchi vosita sifatida foydalanilganda hokimiyatning resursi bo'lib yuzaga chiqadi. Umuman, inson nafaqat hokimiyatning resursi, balki uning sub'ekti va ob'ektidir.

Hokimiyat - boy va xilma-xil shakllarda, darajalarda ko'rinadigan ijtimoiy hodisadir. Bu ko'rinishlar ilmiy adabiyotlarda qanday resurslarga asoslanishiga ko'ra, siyosiy, iqtisodiy, sotsial, madaniy-axborot, majburlovchi hokimiyatlarga ajratiladi.

2. Siyosiy hokimiyat, uning mohiyati, belgilari va siyosiy boshqaruvdagi o'рни

Tayanch tushunchalar: siyosiy hokimiyat, siyosiy hayot, siyosat sub'yektlari, siyosiy hokimiyatning maqsadi, siyosiy hokimiyatning legitimligi, an'anaviy legitimlik, xarizmatik legitimlik, huquqiy legitimlik, hokimiyat ko'rinishlari, iqtisodiy hokimiyat, ijtimoiy hokimiyat, majburlovchi hokimiyat, madaniy-axborot hokimiyati

Nazorat savollari

1. Siyosiy hokimiyatni ta'riflang.
2. Siyosiy hokimiyat qanday belgilarga ega?
3. Siyosiy hokimiyatning imkoniyatlarini tushuntiring.
4. Siyosiy hokimiyat hokimiyatning boshqa shakllaridan qanday xususiyatlari bilan farqlanadi?
5. Siyosiy hokimiyat legitimligini misollar orqali tushuntiring.

Referat mavzulari

1. Siyosiy hokimiyatning legitimligi va uning turlari.
2. Siyosiy hokimiyatning siyosiy boshqaruvdagi ahamiyati.
3. Siyosiy hokimiyatning ijtimoiy taraqqiyotdagi ahamiyati.
4. Siyosiy hokimiyat faoliyati samaradorligida siyosat sub'ektlarining o'рни.
5. Evropa mamlakatlari siyosiy hokimiyati shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari (Fransiya, Germaniya, B.Britaniya misolida)

Hokimiyatning eng asosiy va o'ziga xos ko'rinishlaridan biri - **siyosiy hokimiyatdir**. U jamiyat hayotida alohida o'rinni egallaydi. Bu shu bilan belgilanadiki, siyosiy hokimiyat jamiyat va davlat hayotini bir butunligicha va yaxlitligicha qamrab oladi, uni yo'naltiradi va tartibga soladi, hokimiyatning boshqa barcha ko'rinishlarini birlashtiradi, ularni xalq manfaatlariga bo'ysundiradi. Siyosiy hokimiyatsiz hayotni tasavvur etib bo'lmaydi. Usiz jamiyatda tartibsizlik, boshboshdoqlik va o'zboshimchalik boshlanadi. SHuning uchun ham siyosiy hokimiyatning asosiy maqsadi- ijtimoiy va davlat hayotini tartibga solish va boshqarishdir.

Siyosiy hokimiyat – siyosat subyektlarining siyosatda ifodalanga irodasini turli yo'llar, usullar va vositalar yordamida amalga oshirish faoliyatining o'ziga xos shaklidir.

Siyosiy hokimiyat - u yoki bu vosita: obro', huquq, zo'rlik yordamida xalq irodasini amalga oshirish kishilarning faoliyati, xulq-atvoriga belgilovchi ta'sir ko'rsatish qobiliyati va imkoniyatidir.

Siyosiy hokimiyat – bu alohida sinf, katta ijtimoiy guruh yoki mavjud jamiyatning ko'pchiligining o'z ifodasini boshqa shaxslar yoki ijtimoiy guruhlariga o'tkazish qobiliyati va imkoniyati bo'lib, odamlarning faoliyatlariga, xulq-atvoriga o'z obro'si, xulqi, zo'ravonligi vositalarida ta'sir o'tkazishni anglatadi.

Siyosiy hokimiyat qator xususiyatlarga ega. Bu hususiyatlar quyidagi belgilarda o'z ifodasini topadi:

- **legitimligi** ya'ni, davlat miqiyosida kuch ishlatishdan foydalanishning legalligi; har qanday boshqa hokimiyat uchun qarorlarning **majburiyligi**, istagan ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsata olishligi. siyosiy hokimiyat qudratli korporatsiyalar, OAV va boshqa muassasalarning ta'sirini qonunga zid bo'lsa, cheklashi yoki ularni umuman tugatishi mumkinligi;

- **ommaviyligi** ya'ni, umumiyliги va daxlsizligi. Buning ma'nosi shuki, siyosiy hokimiyat mayda, kontakt guruhlarida mavjud bo'ladigan shaxsiy hokimiyatdan farqli o'laroq, huquq yordamida barcha fuqarolarga butun jamiyat nomidan murojaat qilishligi;

- **markazliligi**, qarorlar qabul qilish yagona markazining mavjudligi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyatda siyosiy hokimiyatdan farq qila turib iqtisodiy, sotsial va madaniy-axborot hokimiyatning ko'p markazliligi. Bunda ko'plab mustaqil mulkdorlar, OAV, ijtimoiy fondlar va boshqalarning mavjud bo'lishligi;

- **resurslarning xilma-xilligi**, siyosiy hokimiyatning nafaqat majburlovchi, balki iqtisodiy va madaniy-axborot resurslaridan ham foydalanishligi.

Siyosiy hokimiyat jamiyatda yakka holda emas, balki hokimiyatning boshqa ko'rinishlari: iqtisodiy, sotsial, madaniy-axborot, majburlovchi hokimiyatlarga tayangan holda harakat qiladi.

Iqtisodiy hokimiyat - hokimiyatning mustaqil ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. U siyosiy hokimiyatdan farq qiladi. Iqtisodiy hokimiyat resurslar ustidan nazorat qilish, turli-tuman moddiy boyliklarga egalik qilishni anglatadi. Bu hokimiyat jamiyat taraqqiyotining odatdagi, nisbatan tinch davrlarida hokimiyatning boshqa ko'rinishlari orasida ustuvorlik qiladi. Sababi, iqtisodiy nazorat- bu inson hayotining biror sohasini shunchaki nazorat qilish emas, balki jamiyatning barcha maqsadlariga erishish vositalari ustidan nazorat qilishdir.

Hokimiyatning mustaqil ko'rinishlaridan yana biri- **sotsial hokimiyatdir**. U iqtisodiy hokimiyat bilan chambarchas bog'langan. Agar iqtisodiy hokimiyat moddiy boyliklarni taqsimlash qobiliyatini anglatga, sotsial hokimiyat esa sotsial zinapoyadagi o'rinlarni - maqomlar, lavozimlar, imtiyozlarni taqsimlash qobiliyatini anglatadi.

Hozirgi zamon davlatlari katta sotsial hokimiyatga egadirlar. Ular sotsial siyosat yordamida aholi keng qatlamlarining ijtimoiy ahvolini yaxshilashga sezilarli ta'sir ko'rsatishlari mumkin.

Madaniy-axborot hokimiyati - bu ilmiy bilimlar, axborotlar va ularni tarqatuvchi vositalar orqali kishilar ma'naviy dunyosi ustidan nazoratdir. Bundan tashqari, bu obro' asosida bo'ysunishlik bilan bog'liq bo'lgan hokimiyatni axloqiy, diniy va boshqa ko'rinishlaridir. Hozirgi kunda ilg'or mamlakatlarda ma'naviy ta'sir etishning barcha ko'rinishlari orasida ilmiy-axborot hokimiyati birinchi o'ringa chiqmoqda. Bilim hukumat qarorlarini tayyorlashda, kishilarning ongiga bevosita ta'sir etishda keng foydalanilmoqda. Bunday ta'sir ko'rsatish ijtimoiylashuv

muassasalari (ta'lim, OAV) orqali amalga oshirilmoqda. Axborot hokimiyati turli-tuman maqsadlarga xizmat qilishga qodir. U hukumat faoliyati haqida nafaqat ob'ektiv xabarlarini tarqatishga, noholisona, noaniq xabarlarini tashviqot-targ'ibot qilib, kishilar ongi va xulq-atvorini to'g'ri yo'ldan chalg'itishga ham xizmat qilishi mumkin.

Majburlovchi hokimiyat - majburlovchi resurslarga tayanadigan va majburiy kuch ishlatishni qo'llash yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilish yordamida kishilar ustidan nazorat qilishdir. U iqtisodiy, madaniy-axborot hokimiyati etarli bo'lmaganda amal qiladigan, ularni to'ldiradigan hokimiyatdir. Kuch ishlatishga tayanish-majburlovchi hokimiyatning muhim xususiyatidir. Bundan majburlovchi va siyosiy hokimiyat aynan bir narsa ekan, degan xulosani chiqarmaslik kerak.

Majburlovchi va siyosiy hokimiyatni bir narsa deb, tushunishni o'rinli deb bo'lmaydi. Kuch ishlatishga, majburlashga siyosiy hokimiyat ham tayanishi mumkin. Masalan, jinoiy guruhlarini tugatishda, tashqaridan bo'ladigan bosqinchilik harakatlarini bartaraf etishda majburlovchi resurslardan foydalaniladi. Bu bilan uni majburlovchi hokimiyat bilan aynan bir narsa deb bo'lmaydi.

Siyosiy hokimiyat majburlovchi hokimiyat singari faqat kuch ishlatuvchi, majburlovchi (jismoniy, moddiy, ruhiy) resurslarga tayanish bilan cheklanib qolmaydi. U ijtimoiy muammolarni hal etishda iqtisodiy, sotsial va ma'naviy-axborot resurslariga ham tayanadi. SHuning uchun ham majburlovchi hokimiyatni siyosiy hokimiyatdan farqlamoq kerak.

Hokimiyat ko'rinishlari yuqorida qayd etilganlar bilan cheklanmaydi. U sub'ektiga ko'ra- davlat, partiya, armiya, kasaba uyushmalari, oila va boshqalar hokimiyatiga; qanday funksiyalarni bajarishiga ko'ra- qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga; hokimiyat sub'ekti va ob'ekti o'zaro harakatining ustunligiga ko'ra demokratik, avtoritar va totalitar hokimiyatlarga bo'linadi. SHunigdek, hokimiyat tarqalish kengligi bo'yicha xalqaro tashkilotlar; makro darajada davlatning markaziy organlari; mezo darajada viloyat, tuman tashkilotlari; mikro darajada boshlang'ich tashkilotlar hokimiyatlariga ajratiladi.

Siyosiy hokimiyatga quyidagi bir qator belgilar xos:

1) siyosiy hokimiyat jamiyatda ijtimoiy munosabatlar ifoda etilishining zarur shakli sifatida yuzaga keladi va qaror topadi. Siyosiy hokimiyat - o'z mohiyatida hukmronlik sub'ekti bilan ob'ekt o'rtasidagi qarama-qarshilikni mujassam etadi;

2) hokimiyat hatti-harakatlarda, sub'ektlarning o'zaro munosabatlarida amalga oshiriladigan imkoniyatdir. Uni o'zlashtirib olish mumkin emas. Hokimiyatni egallash, uni bir qo'ldan boshqasiga o'tkazish birovlarining boshqalarga o'z istak-irodalarini zo'rlab tiqishtirish, ularning xulq-atvorini boshqarish qobiliyatini shakllantiruvchi va amalga oshirilishini ta'minlovchi vositalarning muayyan yig'indisini egallab olish yoki o'tkazishdan boshqa narsani anglatmaydi;

3) siyosiy hokimiyat ijtimoiy tizimning, ijtimoiy iqtisodiy munosabatlarning hosilasidir;

4) siyosiy hokimiyat majburlash bilan bog'liq. Shunga qaramay, uni faqat majburlash vositasida yoki jismoniy zo'ravonlik orqali amalga oshirish mumkin

emas. Majburlash ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning vositasi, jamiyatni boshqarishning eng muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Hokimiyatning asosiy jihati - odamlarning ijtimoiy hayotini boshqarish.

Siyosiy hokimiyat hokimiyatning boshqa turlaridan quyidagi asosiy xususiyatlari bilan farq qiladi.

1. **Suverenitet** – hokimiyatning mustaqilligi va bo'linmasligidir.

Masalan, mamlakatda koalitsion hukumat va ko'p partiyali parlament bo'lgan taqdirda ham siyosiy hokimiyat turli siyosiy kuchlarning kelishilgan siyosati orqali amalga oshiriladi.

2. **Iroda** – muayyan siyosiy maqsad va dasturning mavjudligi va uni amalga oshirishga qaratilgan tayyorgarlik.

3. **Avtoritet** – siyosiy hokimiyat subyektining ijtimoiy hayotning barcha jabhalaridagi ta'sirining mamlakat va uning tashqarisidagi umum e'tirofi.

4. **Majburlash** – o'z irodasini jismoniy kuch ishlatib bo'lsa-da amalga oshirish. (Bu xususiyatni diktatura bilan aynanlashtirmaslik kerak.)

Siyosiy hokimiyat yuqorida qayd etilgan xususiyatlarga to'la ega bo'lsagina, u siyosiy hokimiyat maqomiga ega bo'ladi.

Siyosiy hokimiyatda tashkilotlar 3 xil bo'ladi:

1) Asosiy siyosiy tashkilotlar (parlament, davlat va uning organlari, siyosiy partiyalar) siyosiy hokimiyatni bevosita amalga oshiradi, hokimiyat uchun kurash bosh maqsad bo'ladi.

2) Asosiy bo'lmagan siyosiy tashkilotlarga: kasaba uyushmalari, kooperatsiya, yoshlar tashkilotlari, ijtimoiy hayotning o'zaro ta'sirida odamlar munosabati, xarakatini ko'rsatish mumkin.

3) Siyosiy bo'lmagan tashkilotlar (teatr, sport va h.k.) siyosiy hokimiyatni amalga oshirishda qatnashmaydi. Biroq keyingi vaqtlarda jamoatchilik birlashmalari ham ma'lum darajada siyosatlashib bormoqda. Ayniqsa sport va h.k.

Siyosiy hokimiyat tahlilida hokimiyatning legitimligi tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Legitimlik atamasi o'zining lug'aviy mazmuniga ko'ra fransuzcha "legitimite" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u qonuniy degan ma'noni anglatadi. Hokimiyat legitimligi odatda uning qonuniyligi va adolatligi fuqarolar tomonidan ijobiy baholanishini va ixtiyoriy tan olinishini anglatadi. U hokimiyatning obro'i bilan uning mavjud siyosiy institutlarining optimallikka e'tiqodni shakllantirish va saqlab turish qobiliyati va imkoniyati bilan beliglanadi.

Legitimlik va legallikni aynan bir xil tushunchalar deb bo'lmaydi. Ular birlariga mos kelmaydigan tushunchalardir. Agar legallik hokimiyatning huquqiy asoslanishini, uning huquqiy me'yorlarga mos kelishini anglatasa, legitimlik – bu ishonch, hokimiyatni oqlash va qullab-quvvatlashdir. Qonun chiqaradigan har qanday hokimiyat, ularning bajaralishini ta'minlamaganda ham legaldir. SHu bilan birga nolegitim bo'lishi, xalq tomonidan qabul qilinmasligi ham mumkin. Hokimiyatning legitimligi bir xil emas. U o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra xilma-xil turlarga bo'linadi.

Hokimiyat legitimligining uchta mumtoz turini (Maks Veber) ajratib ko'rsatish mumkin. Bu turlar quyidagilardan iborat:

1). **An'anaviy legitimlik**. U azaldan o'rnatilgan tartiblarning buzilmasligi va muqaddasligiga bo'lgan ishonchga, hokimiyatga bo'ysinish urf-odatlariga binoan qaror topadi. Uning negizini siyosiy an'analarga, urf-odatlariga ishonch tashkil etadi. An'anaviy legitimlik monarxiyalarga xos xususiyatdir. Bunda ko'p asrlik an'analarga, hokimiyatning ko'p asrlik turlariga, hokimiyatning meros tariqasida o'tishiga, fuqarolarning hukmdorlarga so'zsiz bo'ysunishlariga, ular o'rtasidagi munosbatlarning norasmiyligiga asoslanadi.

An'anaviy legitimlik tarixiy jarayonda ancha o'zagrishlarga yuz tutgan bo'lsa-da uni bugungi kunda ham kuzatish mumkin.

2). **Xarizmatik legitimlik** (yunoncha «xarizma» - xudo tomonidan in'om etilgan ilohiy qobiliyat). Bu legitimlik rahbarning haddan tashqari ilohiy qobiliyatiga, favqulodda iste'dodiga, ya'ni xarizmaga ishonishga asoslanadi. Uning negizini tarixiy an'analarga emas, balki shaxsga xalqning cheksiz ishonchi tashkil etadi.

Legitimlikning xarizmatik turi an'anaviy legitimlikning tamomila aksidir. An'anaviy legitimlik an'ana, urf-odatga bog'langan bo'lsa, xarizmatik legitimlik, aksincha, shu paytgacha tan olinmagan tamomila yangi narsalarga, yangi g'oyalarga asoslanadi.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, xarizmatik legitimlik ko'pincha o'tish davrlarida tez-tez kuzatiladi. Har bir tarixiy davr muayyan xarizmatik turdagi legitimlikni ilgari suradi. Undan hozirgi davr ham istisno emas.

3). **Oqilona-huquqiy legitimlik** – legitimlikning mustaqil turidir. U legitimlikning an'anaviy, xarizmatik turlaridan farq qiladi. Oqilona-huquqiy legitimlik fuqarolarning alohida shaxslarga emas, balki davlat tuzilishiga bo'lganligiga asoslanadi. Uning manbaini oqilona anglangan manfaat tashkil etadi. Bu manfaat kishilardan umumjahon tomonidan e'tirof etilgan qoidalar bo'yicha shakllangan hukumat qarorlariga ixtiyoriy buysunishni uyg'otadi.

Oqilona huquqiy legitimlik ilg'or, demokratik davlatlarga xos xususiyatdir. Bunday davlatlarda kishilar rahbar shaxsga emas, balki qonunlarga bo'ysunadi. Hokimiyat vakillari demokratik tamoyillar asosida saylanadilar va harakat qiladilar. Ularda Konstitutsiya asosiy huquqiy akt hisoblanib, sotsial xulq-atvorlarning muayyaan qoidalarini beligalab beradi. Bu qoidalarga barcha fuqarolarning, shu jumladan, siyosiy rahbarlarning ham qattiq rioya qilishlari urf-odatga aylanadi.

Hozirgi zamon siyosiy amaliyotida oqilona-huquqiy legitimlikni sof, ideal holda uchratish qiyin. Uni ko'pincha boshqa turlar bilan bog'langan, oqilonalikning an'anaviylik bilan to'ldirilgan va boyitilgan holda uchratish mumkin.

3. Davlat hokimiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari. Davlat hokimiyati haqidagi siyosiy nazariyalar

Tayanch tushunchalar: davlat, davlat hokimiyati, siyosiy hokimiyat ko'rinishlari, hokimiyatning bo'linish tamoyili, qonun chiqaruvchi hokimiyat, ijro etuvchi hokimiyat, sud hokimiyati, davlat apparati, huquqiy davlat.

Nazorat savollari

1. Davlat hokimiyati tushunchasiga ta'rif bering.
2. Davlat hokimiyatining o'ziga xosligi qanday xususiyatlarida ko'rinadi?
3. Siyosiy hokimiyatning belgilari davlat hokimiyat uchun ham taalluqli bo'ladimi?
4. Davlat hokimiyatining bo'linish tamoyili?
5. Davlatning paylo bo'lishi haqida qanday nazariyalarni bilasiz.
6. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda shaxs va hokimiyat munosabatlarini demokratlashtirish borasida qanday ishlar amalga oshirildi?

Referat mavzulari

1. Davlatning paydo bo'lishiga oid nazariyalar.
2. Davlat hokimiyatining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati.
3. O'zbekistonda davlat hokimiyatining huquqiy asoslari.
4. O'zbekistonda davlat hokimiyati va konstitutsiya.
5. Horijiy mamlakatlar davlat hokimiyatining o'ziga xos xususiyatlari.

Siyosiy hokimiyat turli ko'rinishlarda mavjud bo'ladi va faoliyat ko'rsatadi: davlat hokimiyati, partiya hokimiyati, mintaqaviy hokimiyat va hokazo. Ularning eng rivojlangani davlat hokimiyatidir.

Ijtimoiy fanlarda davlat va siyosiy hokimiyat tushunchalari bir butun qaraladi, negaki davlat hokimiyati oliy siyosiy hokimiyat tarzida namoyon bo'ladi. Hokimiyatga doir kundalik tasavvurlar uni "boshqaruv", "davlat hokimiyati" doirasi bilan cheklaydi. Bu leksikada ham o'z ifodasini topgan: Masalan, fransuz tilida hokimiyat (le pouvoir) — markaziy hokimiyatni ham anglatadi, inglizchada (ze pover) — (kuchli, qudratli) davlat ma'nosida ham qo'llanadi, nemischada (che ge valt) — qudrat, zo'rlik ma'nolarida ham keladi. Ruschada "vlast" — boshliqni, "vlasti" esa — davlatning hokimlik muassasalarini bildiradi. O'zbek tilida "hokimiyat" so'zining ma'nolaridan biri — davlat boshqarmasi va "uning organlari; hukumat, siyosiy hukmronlikni anglatadi, "hokimiyat" tushunchasi "o'z izmiga yurgizuvchi, o'z fikrini o'tkazuvchi", hukmron ma'nolarida keladi. Bu an'ana-barcha xalqlar tarixiy taraqqiyotining muayyan davrlarida davlat - hokimiyatni o'z qo'lida to'liq mujassam etgan tashkilot bo'lganidan kelib chiqadi.

Ammo siyosiy hokimiyatning davlatdan tashqari boshqa institutlarda ham mujassam bo'lishini kuzatish mumkin: siyosiy partiyalar, assosatsiyalar, OAVlari v.h. SHuning uchun ham hokimiyat — ijtimoiy hodisa sifatida — ko'p qirrali, ko'p o'lchovlidir. Bu — uning ta'riflarining xilma — xilligida namoyon bo'ladi. Ammo,

siyosat nazariyasi nuqtai nazaridan, bu ta'rifning o'zi etarli emas. Negaki, "davlat hokimiyati" tushunchasi mazmunida hokimiyatning yakka markazda to'planishi nazarda tutiladi va shu tariqa siyosatning amalda ko'p omilli ekanligini inkor etish, hisobga olmaslik mavjud. Bugungi kunda ham siyosiy hokimiyat eng ko'p darajada davlatda mujassamlashgan bo'lsa-da, jamiyatda siyosiy hokimiyatga kuchli ta'sir eta oladigan, yoki uni o'zida aks etuvchi boshqa institutlar ham mavjud (partiyalar, lobbi guruhlari, OAVlari, korporativ guruhlari, ijtimoiy harakatlar elitalar v.h.). Ushbu mavzu doirasida davlatning aynan siyosiy hokimiyatga doir jihatlariga e'tibor qaratamiz.

Davlat hokimiyati - hokimiyatning ko'proq sinfiy tabiatga ega bo'lgan, maxsus majburlash apparatiga suyanadigan va hamma uchun majburiy qonunlar chiqarishda hamda boshqa normativ hujjatlarni tasdiqlashda monopoliyaga ega bo'lgan shaklidir.

Hokimiyatning ko'proq sinfiy tabiatga ega bo'lgan, maxsus majburlash apparatiga suyanadigan va hamma uchun majburiy qonunlar chiqarishda hamda boshqa normativ hujjatlarni tasdiqlashda monopoliyaga ega bo'lgan shakli davlat hokimiyatidir.

Davlat hokimiyati ommaviy-siyosiy xususiyatga ega bo'lib, asosiy ijtimoiy vazifasi jamiyatni uyushtirish va boshqarishdan iborat. U muayyan tashkiliy shakllarda namoyon bo'ladi, maxsus usullar va vositalar bilan amalga oshiriladi. Hozirgi zamon demokratik jamiyatlarida davlat hokimiyati huquq vositasida, konstitutsiya tarzidagi qonunlarda institusional ko'rinishda rasmiylashtiriladi.

Davlatning jamiyatni boshqarish faoliyati uning hokimiyatni amalga oshirishi orqali ifoda topadi. Shuning uchun ham davlat bilan davlat hokimiyat tushunchalari o'rtasida nazariya bilan amaliyot o'rtasidagiga o'xshagan farq bor deb aytish mumkin. Davlat hokimiyatining amaliy faoliyati dastur-rejalarda oldindan belgilangan, navbatma-navbat ishga solinadigan siyosiy mexanizmlar tizimini anglatadi. Mazkur ma'noda "davlat hokimiyati mexanizmi", "davlat apparati", "davlat mashinasi" va shu kabi atamalar, tushunchalar qo'llaniladi. Demak, davlat hokimiyati – bu davlatning amal qilish jarayonini yo'naltirib, uyg'unlashtirib turish faoliyatida namoyon bo'ladi va ifoda topadi.

Hozirgi dunyoda respublika boshqaruvi amal qilayotgan jamiyatlarning deyarli barchasida davlat hokimiyati qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatlariga bo'lingan. O'z vaqtida, Arastu hokimiyatning uch turi mavjudligini aytib o'tgan. Ammo, cheksiz hokimiyatni nazorat qilish va bo'lish mexanizmi sifatida bu g'oya ilk bor Jon Lokk (1632 — 1704) tomonidan 1688-yil ingliz "Shonli inqilobi" davrida monarx hokimiyatini parlament foydasiga cheklash masalasini hal qilish jarayonida mukammal ishlab chiqildi. Lokk xalq suvereniteti asosidagi konstitutsion hukumat amal qilishini, qonunlar parlament tomonidan ishlab chiqilib, hukumat ularni ijro etishi lozimligini talab etgan.

Ammo hokimiyatlar bo'linishi g'oyasining muallifi, deb SHarl Lui Monteske (1659 — 1753) e'tirof etiladi. U-yagona davlat hokimiyatini uch teng vakolatli va mustaqil qismga: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga ajratishni taklif

etdi. Hokimiyatlarning hech biri cheksiz bo'lishi yoki boshqalardan ustun bo'lishi mumkin emas. Sud hokimiyati parlament va hukumatning konstitutsiya va qonunlarga amal qilishini kafolatlashi kerak bo'lgan.

Bu tamoyil huquqiy tarzda ilk bor AQSH Konstitutsiyasida 1778 yilda bayon etildi. Unda Monteske nazariyasi tutib turish va bosim mexanizmlari bilan to'ldirilgan. Turli mamlakatlarda hokimiyatlar bo'linishi tamoyilining mazmuni va amalga oshirilishi turlichadir. Ammo ularning o'zaro hamkorligi va nazorati mexanizmi hokimiyat faoliyati samaradorligini ta'minlaydi, qonun ustivor, huquqiy — konstitutsion davlat shakllanishiga xizmat qiladi.

Davlat jamiyat siyosiy tizimida markaziy o'rinni egallaydi. Negaki, u hokimiyatni o'ziga eng ko'p mujassamlashtirgan siyosiy tashkilot bo'lib, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni echishning eng ko'p imkoniyatlariga ham egadir. SHu tufayli jamiyat siyosiy tizimini tashkil etuvchi boshqa institut va tashkilotlar ham aynan davlat atrofida birlashadilar. «Davlat» keng ma'noli tushunchadir. Davlatning mohiyatini tushunishda 3 asosiy nazariy yondashuv mavjud: ijtimoiy, sinfiy va siyosiy-huquqiy.

Davlat mohiyatini tushunishdagi 1-yondashuvga ko'ra, davlat - umumiy muammolar va ishlarni hal etish vositasi, u hukmdorlar va xalqning o'zaro munosabatini tartibga soladi. 2-yondashuvning mohiyati shundaki, davlat sinflarning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan va sinfiy kurash bir sinfning boshqasini bostirish quroli bo'lib xizmat qiladi. 3-yondashuvning asosi: ko'yidagicha: davlat jamiyatning va davlatning o'zining hayotini tashkil etuvchi huquq manbaidir.² Albatta uchala yondashuvda ham muayyan asos bor.

Siyosiy fan uchun davlat qadimdan tafakkurning boshlang'ich nuqtasi va markazi bo'lib kelgan. Uzoq vaqt mobaynida jamiyat va davlat tushunchalari mazmuniga ko'ra va terminologik jihatdan o'zaro farqlanmagan. Ularni bir-biridan ajratish yo'lidagi ilk qadamlardan biri N. Makiavelli tomonidan qo'yildi — u davlatni belgilash uchun maxsus **Stato terminini** joriy etdi. Fuqarolik jamiyati va davlatni jiddiy nazariy farqlash birinchi bo'lib Gegel tomonidan amalga oshirildi. Bunda u, albatta, davlatni birinchi o'ringa qo'ydi. Davlat va jamiyatni aynan bir narsa deb qarash an'anasi hozirda ham mavjud — faqat nazariy jihatdan emas, balki kundalik ongda.

Alohida ijtimoiy institut sifatidagi davlatning boshlang'ich manbalari, uning vujudga kelishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqidagi masala siyosatshunoslik uchun muhim ahamiyatga ega. Siyosiy fan klassiklari bu borada qator muhim g'oyalarni ta'riflab berganlar.

Davlatning paydo bo'lishi to'g'risida turli nazariyalar mavjud:

Teologik konsepsiya davlatning kelib chiqishini ilohiy qonunlar bilan bog'laydi.

Patriarxal nazariya (asoschisi — XVIII asr ingliz siyosiy mutafakkiri Robert Filmer) davlatning vujudga kelishini urug'larning qabilalarga, qabilalarni esa katta ijtimoiy birliklarga, shu tariqa davlat tuzilmalariga qadar mexanik birlashuvi natijasi, deb hisoblaydi.

O'z vaqtida Konfutsiy davlatning **patriarxal-paternalistik konsepsiyasini** bayon qilib bergan edi: unga ko'ra davlat katta oila hisoblanadi. U hukmdorlarni fuqarolar bilan yaxshi

² Саидов А., Таджиханов У. Давлат ва ҳуқуқ асослари. Т.: ЎЗР ИИВ Академияси, 1999, 9-10-бетлар.

fazilatlar asosida munosabat o'rnatishga da'vat qildi. Konfutsiyning fikriga ko'ra davlat – bu umum manfaati yo'lida hammaning nomidan amalga oshiriladigan patriarxal hokimiyatning rivojlangan shakli.

T. Gobbs, J. Lokk va J. J. Russo tomonidan rivojlantirilgan **ijtimoiy kelishuv nazariyasi** davlatni ijtimoiy hayotni tashkil qilish va tartibga solishni ta'minlash maqsadida mustaqil hukmdor va fuqarolar o'rtasida o'rnatilgan o'zaro kelishuvdan keltirib chiqaradi.

XIX asrda davlatning paydo bo'lishini bir guruhning ikkinchisini bosib olish bilan izohlovchi **zo'ravonlik nazariyasi** (asoschisi avstriyalik sotsiolog va huquqshunos L. Gumplovich) keng tarqaldi.

Psixologik nazariya davlatning paydo bo'lishini inson dahosidan tug'ilgan g'oyalardan keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy nazariya davlatning kelib chiqish manbalarini mehnat taqsimotidan, jamiyatni boshqarish faoliyatining ajralib chiqishidan qidiradi. Uning eng qadimiy ko'rinishi – Platon qarashlari.

Marksistik nazariyaga ko'ra davlat iqtisodiy jihatdan hukmron sinf manfaatlarining ifodachisi sifatida jamiyatning sinflarga bo'linishi natijasida paydo bo'ladi. Davlatning barham topishi muammosi bu nazariyaning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Davlat paydo bo'lishining **zamonaviy nazariyasi** yuridik hisoblanadi, chunki u davlatni xalqlarning huquqlarida ko'radi va hokimiyatni inson huquqlari, ya'ni belgilangan darajadagi inson erkinliklari asosiy talablarining hokimiyatga munosabat bilan bog'laydi. Demak, davlat - suverenitetga, boshqaruvning hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishning mahsus apparatiga ega bo'lgan, shuningdek, huquq normalari (qoidalari)ni yaratishga qodir bo'lgan ommaviy hokimiyatning siyosiy-xududiy tashkilotidir.

Davlat - butun mamlakat miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo'lgan, barcha uchun majburiy qonunlar chiqaradigan va suverenitetga ega bo'lgan yagona siyosiy tashkilotdir.

Davlat - jamiyat siyosiy tizimning odamlar, guruhlar, sinf, tashkilot, shamkorlikdagi faoliyatini va o'zaro munosabatini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va nazorat qiluvchi asosiy institutdir.

Davlat - hokimiyatning bosh instituti. Hokimiyat davlat orqali o'z siyosatini amalga oshiradi. «Hokimiyat», «davlat» va «siyosat» tushunchalari bir-biriga juda yaqin bo'lib, bir-birlarini belgilab beradi.

Davlatning jamiyat siyosiy tizimidagi o'rni va roli uning funksiyalari bilan belgilanadi. Odatda, davlat funksiyalari ichki va tashqi funksiyalarga bo'linadi.

Davlatning ichki funksiyalari quyidagi sohalar: iqtisodiy (iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, davlat korxonalarini boshqarish, narx siyosatining huquqiy asoslarini belgilash, tashqi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish), ijtimoiy (ish bilan bandlikning ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash, fuqarolarning ijtimoiy himoyasi), ta'lim (ta'lim olishni demokratlashtirish, uning uzluksizligini ta'minlash, ta'lim olish uchun barchaga teng imkoniyatlar berish), ekologik, soliq yig'ish, madaniy hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini o'z ichiga oladi.

Davlatning tashqi funksiyalari jahon iqtisodiga integratsiyalashuv va tashqi iqtisodiy sheriklik, davlatni himoya qilish, dunyoviy tartib-qoidalarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, boshqa mamlakatlar bilan hamkorlikdan iborat.

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, agarda davlat faoliyati SH.Monteskening **qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati** funksiyalarini ajratish haqidagi g'oyalari asosida qurilgan bo'lsa hokimiyat organlari samarali faoliyat ko'rsatishi mumkin. Ularga yana davlat boshlig'ining hokimiyati qo'shiladi.

Davlatlar, boshqaruv shakllari va davlat qurilishi shakllariga ko'ra o'zaro farqlanadi. Ular davlatchilikning tarixiy an'analari, uning vujudga kelishining asosiy xususiyatlari va boshqalar jihatidan turli-tuman. Bir tomondan, yagona tipdagi davlat hududida davlat hokimiyati faoliyati va uni tashkil etishning turli shakllari uchrashi, ikkinchi tomondan esa, turli tipdagi davlat bir xil shaklda namoyon bo'lishi mumkin. Davlatning mohiyati bevosita uning shaklidan kelib chiqadi va u orqali aniqlanadi.

Davlat shakliga xalqning madaniy darajasi, uning tarixiy an'analari, diniy dunyoqarashlar tabiati, milliy xususiyatlar, hayot kechirishning tabiiy sharoitlari va boshqalar jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlat shakli – murakkab ijtimoiy hodisa, u o'zaro bog'langan uch unsumi o'z ichiga oladi: boshqaruv shakli, davlat qurilishi shakli va davlat rejim shakli. Turli mamlakatlarda davlat shakllari o'z xususiyatlariga, xarakterli belgilariga ega, ijtimoiy rivojlanish darajasiga qarab ular yangi mazmun bilan boyib boradi. SHu bilan birga, mavjud davlatlar shakli umumiy belgilarga ham ega, bu narsa davlat shaklining har bir unsuriga ta'rif berish imkonini beradi.

Boshqaruv shakli davlat hokimiyati oliy organlarining tuzilishi, ularning vujudga kelish tartibini o'z ichiga oladi.

Davlat shakli quyidagilarni anglash imkoniyatini beradi:

- Davlatning oliy organlarini vujudga kelishi va ularning tuzilishi;
- Davlatning oliy va boshqa organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qurilishi;
- Oliy davlat hokimiyati va mamlakat aholisi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qurilishi;
- Oliy davlat organlari tomonidan fuqarolarning huquq va erkinliklar ta'minlanish darajasi.

Ko'rsatilgan belgilar bo'yicha davlat boshqaruv shakli monarxiya (mutlaq, konstitutsion, teokratik, dualistik) va respublikaga bo'linadi.

Monarxiya – bu shunday boshqaruv shakli, unda oliy hokimiyat yakka bir shaxs tomonidan amalga oshiriladi va, odatda, meros bo'lib o'tadi.

O'z hokimiyatidan umrbod foydalanuvchi yakka davlat rahbari (sulton, qirol, imperator, shoh), oliy hokimiyatning vorisiylik asosida meros bo'lib o'tish tartibi, monarxning yuridik jihatdan mas'uliyatsizligi klassik monarxistik davlat boshqaruvining asosiy belgilari hisoblanadi.

Monarxiya quldorlik jamiyati sharoitlarida vujudga kelgan. Feodalizmda u davlat boshqaruvining asosiy shakliga aylandi. Hozirgi dunyoda monarxiyaga asoslangan

boshqaruvning faqat an'anaviy, asosan yuzaki belgilari saqlanib qolgan. O'z navbatida, monarxiya mutlaq, cheklangan (konstitutsion), dualistik va teokratik monarxiyaga bo'linadi.

Mutlaq monarxiya – boshqaruvning shunday shakli, unda oliy davlat hokimiyati qonun bo'yicha to'raligicha bitta shaxsga bo'ysunadi. Bunday boshqaruv shakli Saudiya Arabistoni, Qatar, Ummon, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa mamlakatlarda amalga oshiriladi.

Cheklangan monarxiya (yoki konstitutsiyaviy monarxiya) – boshqaruvning shunday shakli, unda monarxning hokimiyati vakillik organlari tomonidan sezilarli darajada cheklanadi. Odatda bu cheklash parlament tomonidan tasdiqlangan konstitutsiya bilan belgilanadi. Monarx esa konstitutsiyani o'zgartirish huquqiga ega emas.

Cheklangan monarxiyaning asosiy belgilari – hukumat parlament saylovlarida ko'pchilik ovoz olgan muayyan partiyaning vakillari asosida shakllantiriladi; eng ko'p deputat o'rinlariga ega bo'lgan partiya lideri hukumat rahbariga aylanadi; qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud sohalari amalda monarx hokimiyatiga bo'ysunmaydi, uning bu sohalardagi hokimiyati ramziy hisoblanadi; qonunchilik hujjatlari parlament tomonidan qabul qilinadi va faqat rasman monarx tomonidan imzolanadi; konstitutsiyaga muvofiq hukumat monarx oldida emas, balki parlament oldida hisobot beradi. Boshqaruvning bunday shakli Yaponiya, Buyuk Britaniya, Daniya, Ispaniya, Belgiya, Shvetsiya va boshqa mamlakatlarda amal qiladi.

Konstitutsiyaviy monarxiyaning shakllaridan biri sifatida dualistik monarxiya maydonga chiqadi. Dualistik monarxiyaning asosiy belgilari – ikkiyoqlama xarakter kasb etadi; yuridik jihatdan hokimiyat haqiqatda monarx tomonidan shakllantirilgan hukumat va parlament o'rtasida bo'linadi; hukumat parlamentdagi partiya tarkibiga bog'liq bo'lmagan holda shakllantiriladi va uning oldida hisob bermaydi; monarx asosan feodallarning manfaatlarini ifodalaydi, parlament esa burjuaziya va aholining boshqa qatlamlarini himoya qiladi. Boshqaruvning bunday shakli kayzer Germaniyasida mavjud edi (1871-1918), hozirda esa Marokashda amal qilayapti.

Bir qator davlatlarda monarx mamlakatning nafaqat dunyoviy, balki diniy hayotiga ham boshchilik qiladi. Bunday monarxiyalar teokratik monarxiyalar deb ataladi. Boshqaruvning bunday shakli Saudiya Arabistoni va Vatikanda amal qiladi.

Boshqaruvning yana bir shakli respublika bo'lib, unda oliy hokimiyat aholi tomonidan muayyan muddatga saylangan saylov organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Boshqaruvning **respublika** shaklining umumiy belgilari – yakka hukmdor va kollegial davlat rahbariyatining mavjudligi; davlat rahbari va boshqa davlat hokimiyati oliy organlarining muayyan muddatga saylab qo'yilishi; davlat hokimiyatining o'z irodasiga ko'ra emas, balki xalq xohishi bo'yicha amalga oshirilishi; qonun bilan ko'zda tutilgan hollarda davlat rahbarining yuridik javobgarlikka tortilishi. Respublika ham hamma vaqt va hamma joyda bir xil emas. U ham monarxiya kabi har xil bo'ladi. Hukumatning parlament yoki prezident oldida mas'uliyatlilikiga qarab parlamentar respublika va prezidentlik respublikasiga bo'linadi.

Parlamentar respublikada parlamentning roli katta. U prezidentni — davlat boshlig'ini saylaydi. Hukumat parlament tomonidan tuziladi va uning oldida javob beradi.

Prezidentlik respublikasida prezident parlament yo'li bilan emas, balki maxsus tartib, ya'ni xalq tomonidan saylanadi. U o'z navbatida ma'sul bo'lgan vazirlarni tayinlaydi. Hukumat parlamentga hisob bermaydi. Hozirgi vaqtda prezidentlik respublikasi ko'rinishi keng tarqalgan. U dunyodagi ko'pgina mamlakatlarda mavjud. Parlament respublikasi prezidentlik respublikasiga nisbatan kamroq tarqalgan. U Italiya, Hindiston, Germaniya, Avstriya, Finlandiya, Turkiya, Islandiya va boshqa ayrim mamlakatlarda amal qiladi.

Respublika boshqaruvining **aralash shakli** ham mavjud. Bu shakl ikki xil modelga ega. Birinchi tipga boshqaruvning shunday shakli kiradiki, unda parlament modeliga ko'ra prezident sezilarli darajada muhim rol o'ynaydi (hozirgi Fransuz Respublikasi). Bunday tizimlarda Prezident ochiq saylovlarda saylanadi, u hukumatni shakllantirish va asosiy lavozimlarga tayinlashda muhim ta'sir ko'rsatadi. Hukumat prezidentga bo'ysunibgina qolmay, parlament oldida ham hisob beradi, ba'zi hollarda u parlament bilan almashtirilishi ham mumkin. Konstitutsiyaviy boshqarish bilan bir qatorda partiya tizimlari tuzilmasi va parlamentdagi ko'pchilikning haqiqiy munosabati muhim rol o'ynaydi. Fransiya Prezidenti parlamentda ko'pchilik ovozga ega bo'lsagina o'z pozitsiyalarini mustahkam saqlab qolishi mumkin.

Respublika boshqaruvining ikkinchi aralash shakli SHveysariyada mavjud. Bu erda parlament hukumatni saylasada, uni chaqirib olish huquqiga ega emas. O'z navbatida, hukumatda parlamentga nisbatan qaror qabul qilish huquqi yo'q. Hukumat lavozimi va deputatlik mandatini bir-biriga qo'shib bo'lmaydi. Hukumatni kollegial organ shakllantiradi, ayni paytda, prezidentlik tizimiga zid ravishda rasman qonun chiqarishda tashabbus ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Davlatni boshqarish shakllarining bir-biridan farqlanishiga qaramay, parlament va hukumatning mavjudligi har qanday tipdagi davlatlar (mutlaq monarxiya bundan mustasno) uchun umumiy hisoblanadi.

Parlament bir palatali (Daniya, SHvetsiya, Belorussiya) va **ikki palatali** (AQSH, RF, Kanada, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, O'zbekiston) bo'ladi. Quyi palatalar va bir palatali parlamentlar hamisha to'g'ridan-to'g'ri saylovlar o'tkazish yo'li bilan, yuqori palatalar esa yoki vorisiylik (Buyuk Britaniya), yoki hukumat boshlig'ining tayinlanishi (Kanada, Iordaniya), yoki saylash (AQSH, Italiya, Hindiston, Fransiya, Rossiya) tamoyili asosida shakllantiriladi.

Quyi palata ichki va tashqi siyosatning kundalik masalalarini hal qilish uchun mas'ul hisoblanadi, odatda yuqori palataga qaraganda qisqa muddatli vakolatlarga ega bo'ladi. Yuqori palata quyi palata faoliyatining o'ziga xos eksperti sifatida maydonga chiqadi – u qabul qilgan qonun loyihalarini Konstitutsiyaga muvofiq kelish-kelmaslik nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi.

Har ikkala palata a'zolari ham quyidagi parlament imtiyoziga ega bo'ladilar:

- immunitet (daxlsizlik);
- indemnitet (deputat parlamentdagi chiqishi va ovoz berish yo'li bilan qo'llab-quvvatlagan choralari uchun javobgar bo'lmaydi).

Parlamentning asosiy funksiyalari:

- Qonun yaratish;
- Vakillik;

- Teskari aloqa funksiyasi – busiz davlat organlari olib borilayotgan siyosatining ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishini ta’minlay olmaydilar. Ushbu aloqa turli usullar bilan amalga oshiriladi. Bir qator davlatlar alohida parlament komissarlari (ombudsmanlar) institutiga ega, ular davlat xizmatchilarining qonunlarga rioya qilishi ustidan nazorat etish maqsadida tayinlanadi. O‘zbekistonda bu institut parlament huzurida Oliy Majlisning birinchi sessiyasida (1995 yil, fevral) tuzilgan.
- Byudjetni shakllantirish funksiyasi;
- Tashqi siyosat funksiyasi.

Hukumat – ijroiya hokimiyatining oliy davlat organi, parlament tomonidan qabul qilingan asosiy siyosiy qarorlarni amalga oshiradi. Boshqaruvning parlament shakli amal qiladigan mamlakatlarda (monarxiya shaklida ham, respublika shaklida ham) u oliy davlat organlari tizimida markaziy o‘rin tutadi. Hukumat vakolati amaldagi qonunchilik bilan belgilanadi. Hukumat qonun chiqarishda tashabbus ko‘rsatish huquqidan foydalanib, parlamentning faoliyat yo‘nalishini belgilab beradi. O‘zbekiston, Fransiya, Irlandiya, Rossiyada prezidentlar umumxalq tomonidan saylanadi. AQSH, Argentina va Finlyandiyada prezident parlament ishtirokisiz, lekin ochiq saylov yo‘li bilan emas, balki saylovchilar kollegiyasi tomonidan saylanadi. Gretsiya, Isroil, Livan, Maltada prezident parlament tomonidan saylanadi. Italiya, Germaniya, Hindistonda parlament a‘zolari prezidentni saylovchi kollegiyaning bir qismini tashkil etadi.

Siyosiy hokimiyat o‘zining tuzilishiga ko‘ra oddiy va murakkab shakllarda namoyon bo‘ladi. Oddiy davlat hokimiyatiga unitar davlatni kiritish mumkin.

Unitar davlat hokimiyati – bu ma’muriy-hududiy, qismlarga bo‘lingan yaxlit, bir butun markazlashgan davlat shaklidir.

Murakkab shakldagi davlat hokimiyatiga federativ **davlatni** kiritish mumkin. U o‘z qonun chiqaruvchi organlariga, o‘z hukumatlariga va sud organlariga ega bo‘lgan bir nechta nisbiy mustaqil davlatlardan tarkib topadi.

Bunday davlatlar ixtiyoriy ravishda markazlashgan davlatni tashkil qiladilar. Bu ittifoq mamlakat ichki va tashqi hayotida barcha federatsiya a‘zolarining nomidan ish olib boradi va ularning manfaatlarini himoya qilada, yagona fuqarolik va hudud, kredit-moliya hamda boshqa munosabatlarni o‘rnatadi.

Federativ davlat hokimiyati — bu teng huquqli respublikalar, muxtoriyatlar, shtatlar, erlar, kantonlar, viloyatlar va okruglarning ixtiyoriy birlashuvi natijasida vujudga keladigan siyosiy hokimiyat shaklidir.

Hozirgi kunda federativ davlatlar hokimiyatiga Argentina, AQSH, Braziliya, Avstraliya, Meksika, Germaniya, Rossiya, Hindiston va boshqalar kiradi.

Murakkab shakldagi davlat hokimiyatiga konfederatsiyani ham kiritish mumkin. U muayyan maqsadlarda — iqtisodiy, mudofaa va boshqa sohadagi muammolarni birgalikda hal etish uchun tuziladi. Bu holda davlat ayrim huquqlarini ittifoqqa bersa-da, o‘zining to‘la suverenitetini, mustaqilligini va bir butunligini saqlab qoladi.

Konfederatsiya — bu to‘la mustaqil davlatlarning ko‘ngilli ittifoqidir.

Shunday qilib, davlat hokimiyati - (davlat apparati) - bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan muayyan tuzilmaga birlashgan davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi

davlat organlarining tizimidir. Davlat hokimiyati - xalq hokimiyatining maxsus tuzilma - davlat orqali amalga oshirilishi. Davlat o'zining organlari orqali siyosiy hokimiyatni amalga oshiradi. Hokimiyat davlat qo'lida to'plagandagina u malakali va samarali amalga oshirilishi mumkin. Davlat o'ziga tegishli hokimiyat yordamida va ta'sir choralari qo'llaydi. Davlat hokimiyati qonuniydir, ya'ni davlatning, uning organlarining vakolatlari qonun bilan belgilab qo'yiladi. Davlat hokimiyati hayotning hamma sohalariga ta'sir qilib turuvchi, ijtimoiy jarayonlarni tartibga soluvchi etakchi siyosiy kuch hisoblanadi. Siyosiy hokimiyatning boshqa biron-bir shakli davlat hokimiyati singari keng imkoniyatga ega emas.

4.O'zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayoni

Tayanch tushunchalar: Qonun chiqaruvchi hokimiyat, ijro etuvchi hokimiyat, sud hokimiyati, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Prezident, siyosiy islohatlar, demokratlashtirish, hokimiyatning bo'linish tamoyili, konsepsiya, milliy parlamentarizm, bir palatali parlament, ikki palatali parlament, ishonchsizlik votumi

Nazorat savollari

1. Qonun chiqaruvchi hokimiyat deganda qanday hokimiyat tushuniladi?
2. O'zbekistonda qonun chiqaruvchi hokimiyatni qaysi tashkilot amalga oshiradi?
3. Milliy parlamentarizmning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini izohdang?
4. Ijro etuvchi hokimiyat qanday vazifalarni bajaradi?
5. O'zbekistonda davlat hokimiyati boshqaruvi jarayoniga tegishli qanday islohatlarni bilasiz?

Referat mavzulari

1. Parlament – jamiyat hayotining ko'zgusi.
2. Milliy parlamentarizm shakllanishining ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslari.
3. O'zbekistonda ijro etuvchi hokimiyat va uning tuzulmaviy takomillashuvi.
4. Parlament islohatlarining davlat boshqaruvi jarayoniga ta'siri.
5. Davlat hokimiyatini yanada demokratlashtirishda siyosiy partiyalarning o'рни (I.A.Karimov tomonidan taqdim etilgan "Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da ilgari surilgan fikrlar asosida)

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda davlat hokimiyatining 3 ta bo'linish prinsipi mavjud. O'zbekiston Konstitutsiyasining xalq hokimiyatchiligiga bag'ishlangan 11-moddasida ham davlat hokimiyati 3 ta bo'linish prinsipiga asoslanishi bayon etilgan. Ular 1) qonun chiqaruvchi (parlament), 2) ijro etuvchi (Vazirlar Mahkamasi) va 3) sud hokimiyati.

Qonun chiqaruvchi hokimiyat jamiyat hayotining xilma-xil sohalaridagi o'zgarishlarni, o'zaro munosabatlarni tartibga solish, ularni huquqiy jihatdan kafolatlashga doir qonunlarni ishlab chiqadi. Davlat hokimiyati tomonidan ishlab chiqilgan qonunlarni bajarish va ularga amal qilish majburiy hisoblanadi. Qonun

chiqaruvchi hokimiyat g'arbda: Parlament, Seym Kongress va h.k. deb yuritilsa sharqda: Oliy majlis, Kengash, Halq qurali va h.k. deb ataladi.

Huquqiy davlatchilik va fuqarolik jamiyati gullab-yashnashi uchun ilk zamin — bu parlametarizmdan boshlanmog'i shart. Zero, parlamentning qanday bo'lishi, davlat hokimiyati organlari tizimida uning qanday o'rin egallashi, qanday qonunlar qabul qilinishi, bu qonunlar inson huquqlari va erkinliklarini qay darajada ta'minlay olishi — davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarining xarakterigagina emas, balki bundan keyin davom etadigan davlat va jamiyat qurilishining barcha jihatlariga ta'sir qilishi shubhasiz edi.

Mustaqillik qo'lga kiritilgan dastlabki paytlardanoq O'zbekistonda demokratiyani taraqqiy toptirish uchun hozirgi zamon jahon standartlariga javob bera oladigan samarali va ishchan parlamentni shakllantirish zarur degan fikrda yakdil edi. Ammo bir ijtimoiy tizimdan ikkinchisiga o'tish sharoitida bu vazifa — murakkabgina bo'lib qolmay, balki hayot-mamotni hal qiladigan darajada qiyin masala ham edi.

“Bosqichma-bosqichlilik” tamoyiliga amal qilgan islohotchi-davlat ushbu jarayonni quyidagi bosqichlarda o'tkazdi: O'zSSR Oliy Sovetidan — mustaqil O'zbekistonning Oliy Sovetiga, undan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va yarimprofessional bir palatali parlamentdan — ikki palatali professional parlamentga. Birinchi bosqichda suverenitet asoslarini o'rnatish, davlat va jamiyat qurilishi, bozor iqtisodiyotini rivojlantirish va ijtimoiy sohalarda muhim qonunlar qabul qilish kerak edi. Parlamentarizm saboqlarini o'zlashtirish, bunda nafaqat parlament sub'ektlari, balki butun jamiyat bu saboqlarni o'zlashtirmog'i kerak edi. Gap shundaki, “parlament” iborasining o'zi mustaqillik qo'lga kiritilgunicha O'zbekistonda ishlatilmas edi.

Milliy parlamentarizmning eng yangi tarixi O'zbekiston 1991 yil 1 sentyabrda davlat mustaqilligiga erishgach, davlat hokimiyatining eng muhim institutlaridan biri sifatida milliy parlamentni rivojlantirishning sifat jihatidan yangi bosqichi boshlandi. Milliy parlamentarizmning eng yangi tarixi umum e'tirof etilgan uchta asosiy davrga bo'linadi. Birinchi davr: 1991-1994 yillar, ikkinchisi: 1995-2004 yillar va uchinchi davr: 2005 yildan hozirgi paytgacha.

Birinchi davr: 1991-1994 yillar

O'tish davri parlamenti deb atash mumkin bo'lgan oxirgi chaqiriq Oliy Kengash davlat boshqaruvining mutlaqo yangi organlarini tashkil etishning, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan adolatli demokratik jamiyat qurishning huquqiy negizi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qildi. Parlament yosh davlatning suverenitetini mustahkamlashga qaratilgan «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi va boshqa bir qator qonunlarni qabul qildi.

Oliy Kengashning o'n ikkinchi sessiyasi 1994 yil 23 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga birinchi saylovni 1994 yil 25 dekabrda o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. Uch bosqichda (1994 yil 25 dekabrda, 1995 yil 8 va 22 yanvarda) bo'lib o'tgan saylov yakunlariga binoan 245 nafar deputatdan iborat tarkibdagi parlament shakllantirildi. Saylov ko'p partiyaviylik asosida o'tkazildi.

Dunyo mamlakatlarining ba'zilaridagi parlamentlarida deputatlar soni qo'yidagicha:

- 1) AQSH Kongressiga 535 deputat saylanadi.
- 2) Rossiya Federal Majlisiga 626 deputat saylanadi.
- 3) Misrda Xalq Assambleyasiga 454 deputat saylanadi.
- 4) Isroil Knessetiga 120 deputat saylanadi.
- 5) Finlyandiya, Eduskuktiga 200 deputat saylanadi.
- 6) Islandiya Altinggiga 63 deputat saylanadi va h.k.

Ikkinchi davr: 1995-2004 yillar

Oliy Kengash o'rniga O'zbekiston Respublikasining bir palatali parlamenti — Oliy Majlis shakllantirildi, *Birinchi chaqiriq* (1995-1999 yillar) Oliy Majlis tarkibida O'zbekiston Xalq-demokratik partiyasidan ko'rsatilgan 69 nafar, «Adolat» sotsial-demokratik partiyasidan 47, «Vatan taraqqiyoti» partiyasidan 14 va «Milliy tiklanish» demokratik partiyasidan ko'rsatilgan 7 nafar deputat bo'lib, deputatlarning qolgan qismini hokimiyat vakillik organlaridan ko'rsatilgan shaxslar tashkil etdi.

Ikkinchi chaqiriq (2000-2004 yillar) Oliy Majlisga saylov hokimiyat vakillik organlari bilan bir qatorda beshta siyosiy partiya va saylovchilar tashabbuskor guruhlarida bo'lib o'tdi. Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisda 11 nafar deputatni birlashtirgan «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi, 10 nafar deputatdan iborat «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasi, 20 nafar deputatga ega bo'lgan «Vatan taraqqiyoti» partiyasi fraksiyasi, 34 nafar deputat tashkil etgan Fidokorlar milliy-demokratik partiyasi fraksiyasi, 49 nafar deputatdan iborat Xalq-demokratik partiyasi fraksiyasi, 107 nafar kishidan iborat hokimiyat vakillik organlaridan saylangan deputatlar bloki va 16 nafar saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar bloki ro'yxatga olindi. Keyinchalik «Vatan taraqqiyoti» va Fidokorlar partiyalari bitta Fidokorlar partiyasiga birlashganligi munosabati bilan ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning ikkinchi sessiyasida ularning parlamentdagi fraksiyalari a'zolari ham birlashib, 54 nafar deputatni birlashtirgan bitta fraksiyani tashkil etdilar.

Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis tarkibida siyosiy partiyalarning fraksiyalari va deputatlar bloklaridan tashqari quyida ro'yxati keltirilgan 13 ta qo'mita ham faoliyat ko'rsatdi.

Qonun ijodkorligi deputatlar ishining bosh yo'nalishiga aylandi. 1995—2004 yillarda Oliy Majlis 240 ta qonun, 778 ta qaror qabul qildi, amaldagi qonun hujjatlariga 1573 ta o'zgartish va qo'shimchalar kiritdi, 130 dan ziyod xalqaro shartnoma va bitimni ratifikatsiya qildi. Mamlakatning qonun chiqaruvchi oliy organi mazkur bosqichda davlat suverenitetini, fuqarolar tinchligi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga, jamiyatda demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy

islohotlarni chuqurlashtirishga ko'maklashadigan qonunlar ishlab chiqish va qabul qilishga intildi. Natijada parlament mamlakatning demokratik va taraqqiyot yo'lidan mustaqil rivojlanib borishining huquqiy negizini anchagina kengaytirdi va mustahkamladi. Misol uchun, birinchi chaqiriq Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi, «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi, «Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida»gi, «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonunlarda va boshqa qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida asos solingan normalar yanada rivojlantirildi. **Parlament nazorati** bir palatali Oliy Majlis faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalari qonunlar, konvensiyalar, milliy dasturlar ijrosini nazorat qilish tartibida har yili 60 ga yaqin masalani ko'rib chiqdilar. Bunday nazorat Qoraqalpog'iston Respublikasi, mamlakatning barcha viloyatlari, shuningdek, Toshkent shahrini qamrab oldi. Bir palatali Oliy Majlisning nazorat faoliyatini tahlil etish bir qator qonuniyatlarni namoyon etdi. **Birinchidan**, mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini va huquqni tatbiq etish amaliyotini hisobga olgan holda muqaddam qabul qilingan qonunlarni takomillashtirish tamoyili yil sayin kuchaya bordi. **Ikkinchidan**, qonun ijodkorligi ishi borgan sari tarmoq tusini kasb etib, ayrim sohalaridagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishga intildi. **Uchinchidan**, bir necha qo'mita va komissiyalarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan tayyorlangan hamda muhokamaga kiritilgan huquqiy hujjatlarning soni ortib bordi.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga saylov va ikki palatali parlamentga o'tish (2004 yil dekabr — 2005 yil yanvar). Ikki palatali parlamentga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar kiritish asosida amalga oshirilgan konstitutsion islohotlar, shuningdek, asosiy konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilinishi natijasida Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazilib, u ikki bosqichdan iborat bo'ldi. Saylov o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, saylov uchastkalariga bo'lingan 120 ta saylov okrugini tashkil etdi. Saylovning birinchi bosqichi 2004 yil 26 dekabr kuni o'tkazilib, 62 nafar xalq noibi, 2005 yil 9 yanvarda bo'lib o'tgan ikkinchi bosqichda Qonunchilik palatasiga 58 nafar deputat saylandi. Saylovlar ham O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar, ham saylovchilarning tashabbuskor guruhleri ko'rsatgan deputatlikka nomzodlar ishtirokida bo'lib o'tdi.

Saylovda quyidagi siyosiy partiyalar ishtirok etdi: "Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi", "Xalq-demokratik partiyasi", "Fidokorlar" Milliy-demokratik partiyasi (2000 yilning iyunida Fidokorlar partiyasi "Vatan taraqqiyoti" partiyasi bilan birlashgan), "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi, shuningdek, "Milliy tiklanish" Demokratik partiyasi. Saylov natijalariga ko'ra siyosiy partiyalar va saylovchilarning tashabbuskor guruhleri vakillari bo'lgan deputatlar o'rtasida parlamentdagi o'rinlar taqsimoti quyida keltirilgan diagrammada berilgan.

Uchinchi davr. Milliy parlamentarizm rivoj topishining uchinchi davri Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2005 yil 28 yanvardagi qo'shma majlisidan boshlanib, bunda yangi ikki palatali Oliy Majlis deputatlari va senatorlari amalda o'z ishlariga kirishdilar. Mamlakatimiz qonun chiqaruvchilarining ana shu tarixiy anjumanida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti IAKarimov dasturiy ma'ruza qilib, unda jamiyatimizni demokratlashtirish hamda yangilashning aniq va teran asoslantirilgan konsepsiyasini, shuningdek, mamlakatimizni 2005 yilda va uzoq muddatli istiqbolda isloh etish hamda modernizatsiya qilishning asosiy vazifalarini ilgari surdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilishning davlatimiz boshlig'i tomonidan olg'a surilgan ustuvor yo'nalishlari hamda aniq maqsadli vazifalari asosida ishlab chiqilgan — 2005-2009 yillarga mo'ljallangan qonunchilik faoliyati dasturini qabul qildi.

Ikki palatali parlament tashkil etilgach, O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi hokimiyat o'z taraqqiyotida yangi pog'onaga ko'tarildi. Eng asosiysi, garchi qonunchilik jarayoni ancha murakkablashgan bo'lsa-da, qabul qilingan qonunlarning sifati sezilarli darajada oshdi. Qonunlarni qabul qilishda siyosiy partiyalarning roli kuchaydi. Qonun loyihalarini partiyalarning fraksiyalarida oldindan ko'rib chiqish, Qonunchilik palatasi yalpi majlislarida huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilishda ularning fikrlarini albatta eshitish amaliyoti shakllandi.

Ikki palatali parlament sharoitlarida qonunlar uch o'qishda qabul qilinadi. Birinchi o'qishda odatda qonun loyihasining umumiy konsepsiyasi va asosiy qoidalar tasdiqlanadi, ikkinchisida — har bir modda batafsil ko'rib chiqiladi hamda shu modda yuzasidan alohida ovoz berish o'tkaziladi, uchinchi o'qishda esa qonun loyihasi muhokama qilinmasdan to'raligicha ovozga qo'yiladi. SHundan so'ng qonun qabul qilinib, ma'qullash uchun Senatga yuboriladi.

Vazirlar Mahkamasi — O'zbekiston Respublikasining hukumati hisoblanadi. Hukumat bu — davlat boshqaruvining oliy organi bo'lib, Konstitutsiya va qonunlar asosida mamlakatning ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi. Hukumat shu bilan birga, jamoat tartibi va milliy xavfsizlikni ta'minlaydi, shuningdek, davlat boshqaruvining boshqa organlari hamda Qurolli kuchlarga umumiy raxbarlik qiladi.

Turli mamlakatlarda hukumat turli nomlar bilan atalishi mumkin. Masalan Vazirlar Kengashi, Kabinet, Ministrlar Kabineti, Davlat kengashi, Ma'muriy Kengash, Federal Hukumat, Hukumat va hokazo.

Bizda, ya'ni O'zbekiston Respublikasida hukumat "Vazirlar Mahkamasi" deb nomlangan bo'lib, "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi qonunga binoan, u O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlovchi ijro etuvchi

hokimiyat organidir.²

O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan Respublikada ijro etuvchi hokimiyatning amalga oshirilishi to'g'risidagi konstitutsiyaviy qoida hukumat maqomi, uning alohida huquqlarini, tarkibini, qonun chiqaruvchi organlari, ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan o'zaro munosabatlari tarkibini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hukumat Prezident, Oliy Majlis va sudlar bilan bir qatorda hokimiyatni, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'lish asosida davlat hokimiyatini amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari tizimiga va o'zi tashkil etadigan xo'jalik boshqaruvi tuzilmalariga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan ishlashini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida kollegiallik, demokratiya va qonuniylik, O'zbekiston Respublikasida yashovchi barcha millat va elatlarning manfaatini hisobga olish prinsipiga asoslanadi. Respublikada yashovchi barcha millatlar manfaatlarini hisobga olish uchun o'z faoliyatini oshkoralik, insonparvarlik va qonuniylik asosida olib boradi.

Vazirlar Mahkamasi qonun bilan belgilab qo'yilgan o'z tarkibiga ega bo'lib, uning tarkibiga Bosh vazir, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi vazirlar, davlat qo'mitalarining raislari, davlat va xo'jalik boshqaruvi boshqa organlarining rahbarlari kiradilar.

Vazirlar Mahkamasining tarkibini tuzish borasida mamlakat Prezidentiga juda katta vakolatlar berilgan. Ushbu vakolatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-, 93-, 98-moddalarida mustahkamlab qo'yilgan.³

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ikki palatali parlament tuzish zarurligi to'g'risidagi g'oyalari XXI asr boshlarida O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasining tarkibiy qismi sifatida milliy davlatchilik institutlarini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlariga asos qilib olindi. Davlat hokimiyati organlarining ishini zamon talablariga muvofiq ravishda tubdan yaxshilamay turib isloxoatlarni yanada chuqurlashtirish, jamiyat turmushining barcha sohalarini erkinlashtirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etib bo'lmaydi. Xalq tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan kuchli va adolatli hokimiyat, demokratik fuqarolik jamiyatini, kelajagi buyuk davlatni barpo etishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

2002 yil 27- yanvarda o'tkazilgan Referendumda O'zbekiston xalqi mamlakatda ikki palatali parlament tuzishni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddatini besh yildan etti yil qilib uzaytirishni yoqlab ovoz berdi. Ushbu qarorlar ijtimoiy — siyosiy turmushni demokratlashtirish jarayonini yanada jadallashtirish bilan bog'liq.

Referendum qarorlarini hayotga tatbiq etish uchun, eng avvalo umumxalq ovoz berishi natijalarini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonun hujjatlarida aks ettirish lozim bo'ldi. Referendum yakunlari fuqarolik jamiyati

² Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. 1993 йил 5 сон. 202 модда. (янги тахрирда «Халқ сўзи» газетаси 2003 йил 29 август)

³ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси «Ўзбекистон» Тошкент 2003 йил.

institutlari to'g'risidagi, davlat hokimiyatini tashkil etish tizimini, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va uning palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari va sud hokimiyatining konstitutsiyaviy maqomini tartibga soluvchi yangi qonunlarni ishlab chiqish va amaldagi qonunlarini takomillashtirishni taqozo etdi.⁴

YUqoridagilarga asoslangan holda 2003 yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonuni qabul qilindi hamda ushbu qonunni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylov hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatini shakllantirish yakunlariga binoan amalga kiritilishi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori bilan belgilab qo'yildi.

2002 yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumini natijalariga ko'ra hamda uning asosida 2003 yil 24 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan.⁵ Mazkur o'zgartish va qo'shimchalarga binoan Konstitutsiyani 89-moddasining "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi" degan so'zlardan iborat bo'lgan ikkinchi xatboshisi olib tashlandi. Demak, qonun kuchga kirgandan so'ng, ya'ni O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasiga saylov va O'zbekiston Respublikasining Senatini shakllantirish yakunlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanmaydi.

Konstitutsiyaning 98-moddasi hamda yangi tahrirdagi qonunning 15-moddasiga ko'ra, Bosh vazir Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi, Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi, boshqacha qilib aytganda Vazirlar Mahkamasi Raisi funksiyalarining barchasini amalga oshiradi. Qonunchilikda "Vazirlar Mahkamasining Raisi" degan ibora o'rnini "Vazirlar Mahkamasining Bosh vaziri" degan ibora egallaydi.

Islahotlarni evolyusion yo'l bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirish tamoyilining milliy davlatchiligimiz taraqqiyoti modelining tamoyillaridan biri sifatida tanlangani bejiz ham emas. Demak, taraqqiyot bir-biri bilan bog'liq, birin-ketin amalga oshiriladigan islohot va yangilanishlar zanjiridan iborat. Bu jihatdan 2010 yil 12 noyabr demokratik taraqqiyotimizning yangi bosqichiga asos solingan, islohotlar siyosatining yangi pallasini boshlangan sanaga aylandi. Chunki xuddi shu kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"ning taqdim etilishi davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada

⁴ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 04.04.2002 йилдаги 351-II сонли қарори билан тасдиқланган «2002 йил 27-январда ўтказилган Ўзбекистон Республикаси референдумининг якунлари бўйича амалга ошириладиган қонunchilik ишларининг асосий йўналишлари».

⁵ «Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига ўзгартишлар ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги қонуни «Халқ сўзи» газетаси 2003 йил 21 май сони.

demokratlashtirish va kelgusi keng ko'lamli siyosiy islohatlar uchun muhim asos bo'ldi.

Mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar o'ta muhim bir maqsadga, ya'ni hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipini hayotga izchil tatbiq etish, hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta'minlash bo'yicha g'oyat dolzarb chora-tadbirlarni ko'rishga qaratilgan edi.

Bu jarayonda markaziy ijro etuvchi hokimiyatning boshqaruv tuzilmalari va ma'muriy organlarning vazifalarini o'zgartirishga, ularning boshqarish, tartibga solish va taqsimlash borasidagi vakolatlarini, xo'jalik tuzilmalari faoliyatiga bevosita aralashuvini keskin qisqartirishga katta e'tibor berildi. Boshqacha aytganda, ularning vakolatlarini bozor tamoyillariga muvofiqlashtirish va pirovard natijada davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini jiddiy kamaytirish ko'zda tutilgan edi.

Konsepsiyada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir qancha moddalari – 98-moddasi, 96-moddasi, 73- va 93-moddalariga o'zgartishlar kiritish tashabbusi ilgari surilgan.

Bilamizki, har qanday demokratik mamlakatda davlat hokimiyati uch tarmoqqa – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linadi. O'zbekistonda ham mustaqillik qo'lga kiritilgach, hokimiyatlar bo'linishi prinsipini hayotga tatbiq etishga kirishildi. Hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish borasida muhim natijalarga erishildi. Ayni paytda, siyosiy hayotimizda yuz bergan demokratik o'zgarishlar tufayli Bosh vazir lavozimiga nomzod ko'rsatish va uni tasdiqlashning yangi tartibini o'rnatish zarurati yuzaga kelmoqda. Ta'kidlash joizki, amaldagi Konstitutsiyaga binoan Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko'rib chiqilar va tasdiqlanar edi. Endilikda Bosh vazir nomzodining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko'p deputatlik o'rnini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan taklif etilishi nazarda tutiladi.

Birinchidan, bu yangilik ijro hokimiyatini shakllantirish tartibining yanada demokratik tabiat kasb etayotganini ko'rsatadi. Ikkinchidan, yangi tartib Bosh vazirning parlament oldidagi mas'uliyatini yanada orttiradi. Uchinchidan, bu tashabbusning ro'yobga chiqarilishi siyosiy partiyalarning ijro hokimiyatini shakllantirishdagi rolini kuchaytirishga xizmat qilishi shubhasiz. To'rtinchidan, Bosh vazir lavozimiga kimning nomzod etib ko'rsatilishi endilikda parlamentning quyi palatasiga saylovlarning natijalariga bog'liq bo'ladi. Bu esa, mamlakatimizdagi siyosiy partiyalar faoliyati uchun kuchli rag'bat, ular o'rtasidagi raqobatni kuchaytiruvchi asos bo'lishi tabiiy.

Aslida parlamentdagi ko'pchilik tomonidan taklif etilgan nomzodning ijro hokimiyatini boshqarishi deputatlarning unga bo'lgan ishonchini ham orttiradi. Biroq

siyosiy hayot shu qadar rang-barangki, unda bunga mutlaqo teskari holatlarni ham kuzatish mumkin. Navbatdagi yangilik ana shunday holatlarni tartibga solishga xizmat qiladi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumini bildirish huquqi beriladi. Aslida lotincha "votum" atamasi istak, xohish ma'nolarini anglatadi. Hukumat yoki alohida vazir olib borayotgan siyosatning, ularning muayyan xatti-harakatining parlament tomonidan ma'qullanmasligi yoki ular tomonidan ilgari surilgan qonun loyihasining parlamentda qo'llab-quvvatlanmasligi "ishonchsizlik votumi" orqali ifodalanadi.

Konsepsiyaga ko'ra, Bosh vazir va Oliy Majlis Qonunchilik palatasi o'rtasidagi ziddiyatlarning doimiy tus olishi parlament quyi palatasi tomonidan Bosh vazirga ishonchsizlik votumini bildirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayon quyidagi tartibda amalga oshiriladi: "Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi". Bundan tashqari, Konsepsiyada Bosh vazirga ishonchsizlik votumini bildirish shartlari va buning oqibatlariga doir qoidalar, yangi Bosh vazir nomzodini taklif etish tartibi bayon etilgan.

Umuman olganda, O'zbekistonda hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi institutining joriy etilishi qonunchilik organi tomonidan ijro hokimiyatiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini kengaytiradi. Chunki endilikda, zarurat tug'ilganida hukumat siyosatini parlament fikrini e'tiborga olgan holda o'zgartirish, hukumatni nomaqbul qarorlar qabul qilish imkoniyatidan mahrum qilish mumkin bo'ladi. Ikkinchidan, bunday o'zgartishlar qonunchilik organi bilan ijro hokimiyati o'rtasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni ortiqcha ehtiroslarga berilmasdan, huquqiy tartibda hal etish imkonini beradi. Uchinchidan, joriy etilayotgan yangi tartib siyosiy tangliklarning oldini olishga, mamlakatimizdagi sog'lom siyosiy muhitning barqaror bo'lishiga xizmat qiladi. Muhimi, Bosh vazirga ishonchsizlik votumi bildirish masalasi ham, yangi Bosh vazir nomzodini taklif etish masalasi ham parlamentning har ikkala palatasida ko'rib chiqiladi. Demak, davlat boshqaruvining bunday o'ta muhim masalalarini hal qilishda siyosiy partiyalarning manfaatlaridan tashqari, umumdavlat va hududiy manfaatlar mutanosibligiga erishish kafolatlanadi.

Konsepsiyada ijro hokimiyati bilan parlament o'rtasidagi munosabatlarga taalluqli yana bir muhim o'zgartish taklif etildi – parlament vakolatlarini mamlakat taraqqiyotining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitish va muhokama qilish vakolati bilan to'ldirish g'oyasi ilgari surildi. Bu taklifning ahamiyatini bir necha jihatlar bilan bog'lash mumkin. Birinchidan, ijro hokimiyati rahbarining qonunchilik organi oldidagi hisobdorligi ta'minlanadi. Ikkinchidan, hukumatning mamlakat taraqqiyoti uchun mas'uliyati yanada ortadi, davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji bilan bog'liq majburiyatlari yanada kuchaytiriladi. Uchinchidan, vakillik organi bo'lmish parlament timsolida ijro hokimiyati ustidan jamoatchilik nazorati amalga oshiriladi. To'rtinchidan, qonunchilik organi bilan ijro hokimiyatining samarali hamkorlik qilishiga sharoit yaratiladi.

E'tiborlisi shundaki, Konsepsiyada ayrim huquqlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlari doirasidan chiqarish nazarda tutilgan. Jumladan, Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri farmoyishlarini bekor qilish, ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzish va unga rahbarlik qilish bilan bog'liq vakolatlarning Prezident vakolatlari doirasidan chiqarilishi taklif etilgan. Bundan tashqari, viloyat hokimlari hamda Toshkent shahar hokimini Bosh vazir taqdimiga binoan tayinlash hamda lavozimidan ozod etish qoidasini mustahkamlash g'oyasi ilgari surilgan.

Umuman olganda, O'zbekiston Konstitutsiyasiga yuqorida zikr etilgan o'zgartish va qo'shimchalarning kiritilishi:

birinchidan, hokimiyatlar o'rtasida vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta'minlaydi;

ikkinchidan, hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimining yanada samaraliroq amal qilishiga xizmat qiladi;

uchinchidan, davlat boshqaruvining demokratik tabiatini yanada kuchaytiradi, siyosiy tizimni demokratlashtirishning yangi bosqichini boshlab beradi.

Umuman, «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»ning hayotga tatbiq etilishi shaxs va siyosiy hokimiyat o'rtasidagi munosabatlarni yanada demokratlashtirishga xizmat qiladi.

Yuqorida zikr etilgan maqsad va yo'nalishlarning barchasi avvalo mamlakatimizni modernizatsiya qilish borasida uzoqni ko'zlaydigan «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» degan tamoyilni o'zida ifoda etadi.

Xulosa shuki, mustaqillik yillarida mamlakatimizda shaxs va hokimiyat munosabatlarini demokratlashtirish taraqqiyotimizni ta'minlashning asosiy omiliga aylandi. Bu vazifani bajarishni izchillik bilan davom ettirish esa fuqarolik jamiyatini qurish imkoniyatini yaratadi.

HOKIMIYAT

Jamiyatda, odamlar o'rtasidagi munosabat tarzida vujudga keluvchi hokimiyat dastlab siyosiy tabiatga ega bo'lmagan, chunki u, asosan, mos tushuvchi manfaatlarni tartibga solgan (oqsoqollar, qabila boshliqlari, avliyolarning avtoritetga asoslangan anonim hokimiyati).

Jamiyatning rivojlanishi, uning keyingi murakkablashuvi hokimiyatning samaradorligini oshirish maqsadida markazlashuviga olib keladi. Hokimiyat qabila boshliqlari, beklar, xonlar, guruhlar qo'lida to'planadi (individual hokimiyat). Mana shu hokimiyatning mukammal shakllarini topishga intilish, ko'pgina sharq mutafakkirlari asarlarida uchraydi

Ijtimoiy tengsizlikning ortib borishi, ijtimoiy tizimlarning murakkablashishi hokimiyatning institutsional shakllarini keltirib chiqaradi. Hokimiyat boshqaruv, barqarorlik, muvofiqlashtirish vazifalarini bajaruvchi maxsus institutlarga tayana boshlaydi.

Hokimiyat nima? Bu borada mutafakkirlar qarashlari qanday?



1-ilova



M.Dyuverje





Hokimiyat tabiati doimo o'zgaruvchandir. Bu M.Dyuverjega uning ikki qiyofasi bor Yanusga o'xshatish imkonini bergan:

«Ikki qiyofali Yanus tasviri hokimiyat to'g'risida haqiqiy tasavvurlarni beradi. Bir tomondan bu bir guruhning o'z manfaati yo'lida ikkinchi Dunyo ustidan hukmronligi, ikkinchi tomondan bir guruhning o'z manfaati yo'lida ikkinchi guruh ustidan hukmronligi, ikkinchi tomondan – umumiy tartibni saqlash, barchaning manfaatli yo'lida barchaning manfaatini birlashtirish vositasi. U yoki bu tomonning nisbati juda xilma-xil, davrlar, sharoitlar va mamlakatlardan kelib

T. Gobbs





T. Gobbs hokimiyatni birinchi marta tushuncha sifatida ta'riflashga uringan. "Inson hokimiyati, - deb yozadi u,- kelajakda qandaydir imtiyoz, foydaga erishish uchun undagi hozir mavjud vositalardir.



T.Parsons


Hokimiyat aktorlar yoki munosabatlar xususiyati emas, tizimlarning xususiyati (resursi) sifatida ta'riflanadi. Hokimiyat "tizim elementlari o'z burchlarini bajarishlarini ta'minlashga bo'lgan umumiy qobiliyat bo'lib, kollektiv maqsadlarga erishishga intilgani uchun legitimlashadi va itoat etilmagan hollarda sanksiyalar qo'llashni nazarda tutadi, boshqarish vositalarini xarakterlaydi..

N.Makiavelli



N.Makiavelli hokimiyat deganda, davlat hokimiyatini tushunadi. Uningcha, hukumatning o'z fuqarolarini boshqara olish qobiliyati-hokimiyat bo'lib, davlat, siyosatning maqsadi-barcha vositalar bilan hokimiyatni kuchaytirishdir. "Hokimiyatning quroli hukmronlikdir, hokimiyatning asosi" yaxshi «qonunlar» va "yaxshi qo'shindir". Hokimiyat odamlar ehtiroslarini tinglovchi va ularda fuqarolik sifatlarini tarbiyalovchi kuchdir.

M.Beber



Nemis faylasufi **M.Veberning** izohlashiga ko'ra, hokimiyat - odamlarning odamlar ustidan ichki oqlangan zo'ravonlikka asoslangan hukmronligi. Hokimiyatning asosiy vositasi – zo'ravonlik. Siyosat esa hokimiyatda ishtirok etishga intilishni anglatadi.

M.Veber birinchi bo'lib hokimiyatning o'z xohish-irodasini o'tkazish imkoniyati sifatidagi mohiyatini ochib berdi. Falsafiy yovdashuv nuqtai nazaridan, hokimiyat- kimgadir amr-farmon berish, nimanidir tasarruf etish qobiliyati, huquqi yoki imkoniyati, odamlarning huquqlar, obro'-e'tibor, iroda, majburlash singari vositalar yordamida amalga oshiriladigan faoliyati yoki xulq-atvoridir.

2-chizma

Hokimiyat "qiyofalari"

Amerikalik politolog Robert Dal hokimiyatning bir o'lchovli modelini yaratadi va unga "maqsadlar borasidagi ochiq ixtilof" sifatida qaraydi. Bu — hokimiyatning birinchi qiyofasi. Ya'ni siyosiy hokimiyat bir guruh indvidlarning ikkinchi (boshi) guruhga o'z maqsad — manfaatlariga mos qarorlar qabul qilish orqali irodalarini o'tkaza olishdir.

Boshqa amerikalik tadqiqotchilar P.Baxrax va M.Barat'slar hokimiyatning ikkinchi qiyofasi ham mavjudligini, u qarorlarni qabul qilmaslik vaziyatida namoyon bo'lishini ta'kidladilar. Ya'ni o'zi uchun xavfsiz muammolarni ommaviy muhokamaga kiritib, bunga xizmat qiluvchi qadriyatlar va institutlarni yaratadi va mustahkamlaydi. U buning uddasidan qay darajada chiqa olsa, shu darajada echimi manfaatlariga ziyon etkaza oladigan siyosiy hokimiyat subektlariga davlat va uning institutlari, siyosiy elitalar, siyosiy etakchilar, siyosiy partiyalar


Hokimiyatning zamonaviy nazariy tahlilida ikki asosiy an'ana yaqqol ko'zga tashlanadi:

Hokimiyatning guruh konsepsiyasi

Ular hokimiyatni individlar o'rtasidagi mavjud yoki bo'lishi mumkin bo'lgan ixtilofni o'z ichiga oluvchi tengsizlik munosabati deb baholashadi. Hokimiyat shunday ta'sir doirasida vujudga keladiki, unda subektlardan biri ikkinchisiga uning qarshiligiga qaramay ta'sir eta olish qobiliyatiga ega bo'ladi. Hokimiyat kimdandir ustunlik, "nol miqdori" munosabati sifatida ta'riflanadi.

Hokimiyatning noguruhiy konsepsiyasi

"Nol miqdori" g'oyasini inkor etadi va hokimiyat barchaning foydasiga xizmat qila olishidan kelib chiqadi. Bunda hokimiyat butun jamoaga tegishli manba, butun jamoaning biron foydaga erishishi qobiliyati sifatida qaraladi. Hokimiyatning legitim xarakteri uning alohida individlar, guruhga emas, butun jamiyatga tegishli ekanligida, deb ta'kidlanadi. Bu qarashlarning ibtidosini biz Aflotun, Arastuda uchratsak, zamonaviy mualliflardan T.Parsons, X.Arendt va qaysidir darajada M.Fukolarni shu nazariya tarafdorlari, deb ayta olamiz.




"Nol miqdori" qaysidir individ va guruhlar hokimiyatining ortishi boshqa individlar va guruqlar hokimiyatining kamayishini anglatadi

X.Vamberida shunday guvohlikni uchratamiz: "Ulug' amaldorlar o'z vazifalarini bajargan paytda, soliqlar yig'ish vaqtida yumshoq muomala qilishlari shart bo'lgan. Qamchi ishlatish man qilingan. Bu to'g'rida Temurning o'zi aytadi: "Har bir vali o'zining qamchisi kabi ahamiyatga ega bo'lmasa, u kishi to'ralik mansabiga loyiq emas". Bu erda gap — avtoritet to'g'risida ketayapti.


HOKIMIYATNING TURLARI



4-chizma



5-chizma



Sotsial hokimiyat

U iqtisodiy hokimiyat bilan chambarchas bog‘langan. Agar iqtisodiy hokimiyat moddiy boyliklarni taqsimlash qobiliyatini anglatadi, sotsial hokimiyat esa sotsial zinapoyadagi o‘rinlarni - maqomlar, lavozimlar, imtiyozlarni taqsimlash qobiliyatini anglatadi.

Madaniy- axborot hokimiyati

Bu ilmiy bilimlar, axborotlar va ularni tarqatuvchi vositalar orqali kishilar ma’naviy dunyosi ustidan nazoratdir. Bundan tashqari, bu obro‘ asosida bo‘ysunishlik bilan bog‘liq bo‘lgan hokimiyatni axloqiy, diniy va boshqa ko‘rinishlaridir. Hozirgi kunda ilg‘or mamlakatlarda ma’naviy ta’sir etishning barcha ko‘rinishlari orasida ilmiy-axborot hokimiyati birinchi o‘ringa chiqmoqda. Bilim hukumat qarorlarini tayyorlashda, kishilarning ongiga bevosita ta’sir etishda keng foydalanilmoqda. Bunday ta’sir ko‘rsatish ijtimoiylashuv muassasalari (ta’lim, OAV) orqali amalga oshirilmoqda.

Majburlovchi hokimiyat

Majburlovchi resurslarga tayanadigan va majburiy kuch ishlatishni qo‘llash yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilish yordamida kishilar ustidan nazorat qilishdir. U iqtisodiy, madaniy-axborot hokimiyati etarli bo‘lmaganda amal qiladigan, ularni to‘ldiradigan hokimiyatdir. Kuch ishlatishga tayanish- majburlovchi hokimiyatning muhim xususiyatidir. Bundan majburlovchi va siyosiy hokimiyat aynan bir narsa ekan, degan xulosani chiqarmaslik kerak.

3-ilova

Bugungi kunda aksariyat olimlar e’tirof etgan nuqtai nazarga ko‘ra, hokimiyat – muayyan shaxs (guruh)ning u yoki bu kishi (guruh) ustidan boshqaruvni amalga oshirish (hukmronlik qilish), u yoki bu narsaning taqdirini hal etish huquq-imkoniyatidir. Hokimiyatning muhim sifati uning kishilar o‘rtasidagi irodaviy munosabat ekanligida ifodalanadi. Hokimiyat bu shunday ijtimoiy irodaviy munosabatki, bunda hukmron **irodaning ustunligi**, belgilovchi roli ta’minlanadi¹. Hokimiyat amalga oshgan joyda muayyan irodaviy akt (munosabat) bor va shuning natijasida ro‘y beradigan **boshqaruv** va **boshqarilish** mavjud. Boshqaruv esa o‘ziga nisbatan ma’lum bo‘ysunishni, tobelikni talab etadi. Demak, hokimiyat bo‘ysunish va zarur bo‘lganda majburlash elementlari orqali amalga oshiriladi. Ma’lum obro‘ (avtoritet) va bo‘ysunishsiz boshqarish mumkin emas.



SIYOSIY HOKIMIYAT

4-ilova

Hokimiyatning eng asosiy va o'ziga xos ko'rinishlaridan biri - **siyosiy hokimiyatdir**. Siyosiy hokimiyat – bu alohida sinf, katta ijtimoiy guruh yoki mavjud jamiyatning ko'pchiligining o'z ifodasini boshqa shaxslar yoki ijtimoiy guruhlariga o'tkazish qobiliyati va imkoniyati bo'lib, odamlarning faoliyatlariga, xulq-atvoriga o'z obro'si, xulqi, zo'ravonligi vositalarida ta'sir o'tkazishni anglatadi.

Siyosiy hokimiyat jamiyat hayotida alohida o'rinni egallaydi. Bu shu bilan belgilanadiki, siyosiy hokimiyat jamiyat va davlat hayotini bir butunligicha va yaxlitligicha qamrab oladi, uni yo'naltiradi va tartibga soladi, hokimiyatning boshqa barcha ko'rinishlarini birlashtiradi, ularni xalq manfaatlariga bo'ysundiradi. Siyosiy hokimiyatsiz hayotni tasavvur etib bo'lmaydi. Usiz jamiyatda tartibsizlik, boshboshdoqlik va o'zboshimchalik boshlanadi. Shuning uchun ham siyosiy hokimiyatning asosiy maqsadi- ijtimoiy va davlat hayotini tartibga solish va boshqarishdir.



Siyosiy hokimiyat - u yoki bu vosita: obro', huquq, zo'rlik yordamida xalq irodasini amalga oshirish kishilarning faoliyati, xulq-atvoriga belgilovchi ta'sir ko'rsatish qobiliyati va imkoniyatidir.

6-chizma


Siyosiy hokimiyat qator xususiyatlarga ega

legitimligi

davlat miqyosida kuch ishlatishdan foydalanishning legalligi;


**qarorlarning
majburiyligi**

istagan ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsata olishligi. siyosiy hokimiyat qudratli korporatsiyalar, OAV va boshqa muassasalarning ta'sirini qonunga zid bo'lsa, cheklashi yoki ularni umuman tugatishi mumkinligi;



7-chizma

Siyosiy hokimiyat hokimiyatning boshqa turlaridan quyidagi asosiy xususiyatlari bilan farq qiladi




5-ilova

Siyosiy hokimiyat uni egallab turgan, butun jamiyat (davlat)ga rahbarlik qilib boshqarayotganlarning davlat ihtiyoridagi vositalar yordamida xalq ommasining xatti-harakatiga belgilovchi ta'sir o'tkazish, odamlarning ko'pchiligini qo'yilgan maqsad va dasturlarni amalga oshirishga safarbar etish, barqarorlik va ijtimoiy kelishuv maqsadiga alohida guruhlar munosabatlarini tartibga solish qobiliyati va imkoniyatini ifodalaydi

HOKIMIYATNING TARKIBI QANDAY



8-chizma



Sub'yekt


Sub'yekt - hokimiyatning faol, yo'naltiruvchi qismidir. U alohida inson, sotsial guruh, kishilarning birligi, misol uchun xalq yoki jahon hamjamiyati, davlat institutlari, siyosiy partiyalar bo'lishi mumkin. Hokimiyat sub'ektlari murakkab ko'p darajali xarakterga egadirlar. Uning boshlang'ich aktorlari- individlar va ijtimoiy guruhlar, ikkinchilari- siyosiy tshkilotlar, eng yuqori darajadagi sub'ektlari - siyosiy elitalar va liderlardir.

Ob'yekt

Ob'yekt - hokimiyatning ikkinchi muhim elementidir. U hokimiyat sub'ekti qarorlarining bevosita boshqaruvchisidir. Ob'ekt ham, xuddi sub'ekt kabi hokimiyatning ajralmas tarkibiy qismidir. Bu elementsiz hokimiyatni tasavvur etib bo'lmaydi. Hokimiyat ob'ektini quyidagilar: individ, sotsial guruh, sinf, jamiyat tashkil etadi.

9-chizma

Siyosiy hokimiyatni amalga oshirish mexanizm



Siyosiy hokimiyatning legitimligi

10-chizma

Fransuz politologi **J.L.Kermonn** legitimlikni biror mamlakat siyosiy hokimiyatining shu mamlakat qadriyatlariga muvofiqligi, deb ta’riflaydi.

M.Dyuverje yana bir qo‘shimcha qiladi: xalq birdam bo‘lgan har qanday tartib — legitimidir.

Legitimlik atamasi o'zining lug'aviy mazmuniga ko'ra fransuzcha legitimize so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u qonuniy degan ma'noni anglatadi. Hokimiyat legitimligi odatda uning qonuniyligi va adolatligi fuqarolar tomonidan ijobiy baholanishini va ixtiyoriy tan olinishini anglatadi. U hokimiyatning obro'i bilan uning mavjud siyosiy institutlarining optimallikka e'tiqodni shakllantirish va saqlab turish qobiliyati va imkoniyati bilan beliglanadi.

LEGALLIK

hokimiyatning huquqiy asoslanishini, uning huquqiy me'yorlarga mos kelishini anglatadi


LEGITIMLIK

bu ishonch, hokimiyatni oqlash va qullab-quvvatlashdir.

6-ilova

Siyosiy hokimiyat aholi tomonidan vazifaligicha baholanishi mumkin. Aholining hokimiyatga ijobiy baho berishi, uning qonunga muvofiqligini, boshqarish huquqini tan olishiga va bo'ysunishiga roziligi hokimiyatning qonuniyligini bildiradi. Legitim hokimiyati odatda qonunga muvofiq va adolatli sifatda tasniflanadi.

Siyosiy hokimiyatni egallagan elita ommaning ixtiyoriy ravishda mavjud hokimiyatni tan olishlari uchun barcha vositalarni ishga soladi. Omma hokimiyatni ma'lum bir ishonch asosida qabul qilish mumkin. Bu legitimlik prinsiplari deyiladi. Ular siyosiy hokimiyatni tan olib, bo'ysunishini asoslovchi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sabablardir. Legitimlik prinsipining manbalari qadimdan mavjud an'analarda, amaldagi qonunchilikda yoki xukmdorlarning katta avtoritetida bo'lishi mumkin



Hokimiyat legitimligining uchta mumtoz turini (Maks Veber) ajratib ko'rsatish mumkin

An'anaviy legitimlik

U azaldan o'rnatilgan tartiblarning buzilmasligi va muqaddasligiga bo'lgan ishonchga, hokimiyatga bo'ysinish urf-odatlariga binoan qaror topadi. Uning negizini siyosiy an'analarga, urf-oodatlarga ishonch tashkil etadi. An'anaviy legitimlik monarxialarga xos xususiyatdir. Bunda ko'p asrlik an'analarga, hokimiyatning ko'p asrlik turlariga, hokimiyatning meros tariqasida o'tishiga, fuqarolarning hukmdorlarga so'zsiz bo'ysunishlariga, ular o'rtasidagi munosbatlarning norasmiyligiga asoslanadi.

Xarizmatik legitimlik

(yunoncha «xarizma» - xudo tomonidan in'om etilgan ilohiy qobiliyat). Bu legitimlik rahbarning haddan tashqari ilohiy qobiliyatiga, favqulodda iste'dodiga, ya'ni xarizmaga ishonishga asoslanadi. Uning negizini tarixiy an'analar emas, balki shaxsga xalqning cheksiz ishonchi tashkil etadi.

**Oqilona-
huquqiy
legitimlik**

legitimlikning mustaqil turidir. U legitimlikning an'anaviy, xarizmatik turlaridan farq qiladi. Oqilona-huquqiy legitimlik fuqarolarning alohida shaxslarga emas, balki davlat tuzilishiga bo'lganligiga aoslanadi. Uning manbaini oqilona anglangan manfaat tashkil etadi. Bu manfaat kishilardan umumjahon tomonidan e'tirof etilgan qoidalar bo'yicha shakllangan hukumat qarorlariga ixtiyoriy buysunishni uyg'otadi.

Oqilona huquqiy legitimlik ilg'or, demokratik davlatlarga xos xususiyatdir. Bunday davlatlarda kishilar rahbar shaxsga emas, balki qonunlarga bo'ysunadi.

13-chizma


**Hozirgi davrda siyosiy
hokimiyatning rivojlanishida
quyidagi tendensiyalarni
ajratib ko'rsatish mumkin.**



Dunyodagi ko'p mamlakatlarda totalitar va avtolitar tartibot shakllaridan voz kechish huquqiy demokratik, huquqiy davlatni qurishga intilish



Ijtimoiy-siyosiy harakatlar va nodavlat birlashmalarning hokimiyatga ta'sirining ortib borishi



Hokimiyat bo'linishining chuqurlashuvi – hozirgi davrda siyosiy hokimiyat rivojlanishining eng muhim tendensiyasi hisoblanadi.




Hokimiyatning nomarkazlashuvi – hozirgi davrda siyosiy hokimiyat rivojlanishining yana bir muhim tendensiyasi hisoblanadi. Bu markaziy davlat tuzilmalari vakolatlarining mahalliy tuzilmalar foydasiga qayta taqsimlanishida, ya'ni o'z-o'zini boshqarishning rivojlanishida kuzatiladi.



Hokimiyatning ixchamlashuvi bilan bog'liqdir. Bu tendensiya byurokratik boshqaruv apparatining qisqarishi va uni saqlashga ketadigan xarajatlarning kamayishida ko'rinadi.

7-ilova

Siyosiy hokimiyat turli ko‘rinishlarda mavjud bo‘ladi va faoliyat ko‘rsatadi: davlat hokimiyati, partiya hokimiyati, mintaqaviy hokimiyat va hokazo. Ularning eng rivojlangani davlat hokimiyatidir.



14-chizma



DAVLAT HOKIMIYATI

Hokimiyatning ko‘proq sinfiy tabiatga ega bo‘lgan, maxsus majburlash apparatiga suyanadigan va hamma uchun majburiy qonunlar chiqarishda hamda boshqa normativ hujjatlarni tasdiqlashda monopoliyaga ega bo‘lgan shakli




Davlat hokimiyati ommaviy-siyosiy xususiyatga ega bo‘lib, asosiy ijtimoiy vazifasi jamiyatni uyushtirish va boshqarishdan iborat. U muayyan tashkiliy shakllarda namoyon bo‘ladi, maxsus usullar va vositalar bilan amalga oshiriladi.

Hozirgi zamon demokratik jamiyatlarida davlat hokimiyati huquq vositasida, konstitutsiya tarzidagi qonunlarda institusional ko‘rinishda rasmiylashtiriladi.



Siyosiy fan uchun davlat qadimdan tafakkurning boshlang'ich nuqtasi va markazi bo'lib kelgan. Uzoq vaqt mobaynida jamiyat va davlat tushunchalari mazmuniga ko'ra va terminologik jihatdan o'zaro farqlanmagan. Ularni bir-biridan ajratish yo'lidagi ilk qadamlardan biri **N. Makiavelli** tomonidan qo'yildi – u davlatni belgilash uchun maxsus **Stato terminini** joriy etdi. Fuqarolik jamiyati va davlatni jiddiy nazariy farqlash birinchi bo'lib Gegal

Davlatning jamiyatni boshqarish faoliyati uning hokimiyatni amalga oshirishi orqali ifoda topadi. Shuning uchun ham davlat bilan davlat hokimiyat tushunchalari o'rtasida nazariya bilan amaliyot o'rtasidagiga o'xshagan farq bor deb aytish mumkin. Davlat hokimiyatining amaliy faoliyati dastur-rejalarda oldindan belgilangan, navbatma-navbat ishga solinadigan siyosiy mexanizmlar tizimini anglatadi. Mazkur ma'noda "davlat hokimiyati mexanizmi", "davlat apparati", "davlat mashinasi" va shu kabi atamalar, tushunchalar qo'llaniladi. Demak, davlat hokimiyati – bu davlatning amal qilish jarayonini yo'naltirib, uyg'unlashtirib turish faoliyatida namoyon bo'ladi va ifoda topadi.



The diagram features a central purple box with the title "Davlatning paydo bo'lishi to'g'risida turli nazariyalar mavjud:". To the right of this box is the label "16-chizma". Below the box, a large black arrow points downwards towards a series of six horizontal boxes, each representing a different theory of the state's origin. These boxes are connected by a vertical line on the left and have decorative scroll-like ends on the right.

Davlatning paydo bo'lishi to'g'risida turli nazariyalar mavjud:

16-chizma

Teologik konsepsiya davlatning kelib chiqishini ilohiy qonunlar bilan bog'laydi.

Patriarxal nazariya (asoschisi – XVIII asr ingliz siyosiy mutafakkiri Robert Filmer) davlatning vujudga kelishini urug'larning qabilalarga, qabilalarni esa katta ijtimoiy birliklarga, shu tariqa davlat tuzilmalariga qadar mexanik birlashuvi natijasi, deb hisoblaydi.

T. Gobbs, J. Lokk va J. J. Russo tomonidan rivojlantirilgan **ijtimoiy kelishuv nazariyasi** davlatni ijtimoiy hayotni tashkil qilish va tartibga solishni ta'minlash maqsadida mustaqil hukmdor va fuqarolar o'rtasida o'rnatilgan o'zaro kelishuvdan keltirib chiqaradi.

XIX asrda davlatning paydo bo'lishini bir guruhning ikkinchisini bosib olish bilan izohlovchi **zo'ravonlik nazariyasi** (asoschisi avstriyalik sotsiolog va huquqshunos L. Gumplovich) keng tarqaldi.

Psixologik nazariya davlatning paydo bo'lishini inson dahosidan tug'ilgan g'oyalardan keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy nazariya davlatning kelib chiqish manbalarini mehnat taqsimotidan, jamiyatni boshqarish faoliyatining ajralib chiqishidan qidiradi. Uning eng qadimiy ko'rinishi – Platon qarashlari.

Marksistik nazariyaga ko'ra davlat iqtisodiy jihatdan hukmron sinf manfaatlarining ifodachisi sifatida jamiyatning sinflarga bo'linishi natijasida paydo bo'ladi. Davlatning barham topishi muammosi bu nazariyaning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Davlat paydo bo'lishining **zamonaviy nazariyasi** yuridik hisoblanadi, chunki u davlatni xalqlarning huquqlarida ko'radi va hokimiyatni inson huquqlari, ya'ni belgilangan darajadagi inson erkinliklari asosiy talablarining hokimiyatga munosabat bilan bog'laydi.


9-ilova


Davlat jamiyatda amal qilayotgan hokimiyatning markaziy muassasasi sifatida mazkur hokimiyat tomonidan mujassamlashtirilgan, mushtaraklashtirilgan siyosatni amalga oshirish vositasi – quroli bo'lib xizmat qiladi.

Jahon siyosiy adabiyotlarida hokimiyatning “amalga oshirish usuli” mezonini bo'yicha boshqaruv ikki asosiy ko'rinishi bilan farqlanadi.

17-chizma

Davlat hokimiyati






Boshqaruv tarzi totalitar va avtoritar ko'rinishda bo'ladi.

Totalitar siyosiy boshqaruv tarzi hukmron elita va uning doxiysi hokimiyatning jamiyatni to'la o'ziga bo'ysundirishi, zo'rlikka asoslangan siyosiy hukmronligi tizimidir. Bu jamiyat va har bir kishining butun faoliyati mutloq belgilab qo'yiladi, ochiq va yashirin nazorat qilinadi. tashkilotlar taqiqlanadi, progressiv kuchlarga qarshi qatag'on uyushtiriladi, hokimiyat barcha darajasida bir kishi yoki guruh tomonidan yopiq holda shakllantiriladi, fuqarolik jamiyati bo'lmaydi.

Avtoritarizm – totalitarizmga yaqin bo'lib, oliy hokimiyatni egallagan bir kishi yoki guruh faoliyati ma'lum darajada chegaralanadi. Totalitarizmdan farqi shundaki, mamlakatdagi o'tmish ijtimoiy tartiblarni yo'q qilinishi, jahon inqilobini amalga oshirishni maqsad qilib qo'ymaydi. Siyosiy hayotdan boshqa sohalarida kishilarning erkin faoliyatiga ma'lum darajada yo'l qo'yadi.

Demokratik boshqaruv tarzi – xalq hokimiyatining manbai bo'lgan keng fuqaro huquqlarini ta'minlagan jamiyatning siyosiy davlat tuzilishidir. Bunda barcha fuqarolarning teng huquqliligi, umumiy saylov huquqi, vazifali siyosiy partiya va harakatlarning erkin faoliyati, fikr, so'z, e'tiqod erkinligi ta'minlanadi davlat organlari yuqori va quyidan nazorat qilinadi. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati shakllanadi.

Huquqiy davlat



Huquqiy davlat – huquqning hukmronligi va qonunning ustivorligi, hokimiyat vakolatlarining bo‘linishi, sudning mustaqilligi, inson huquqlari va erkinliklari ta’minlanadigan, huquqni muxofaza etuvchi idoralar ishi samarali bo‘lgan xaqiqiy xalq hokimiyati, yuqori darajadagi siyosiy-huquqiy madaniyatga erishgan demokratik davlatdir.

Huquqiy davlatning quyidagi bir qator asosiy belgilari mavjud:

- ❖ Huquqning hukmronligi.
- ❖ Konstitutsiya va qonun ustunligi.
- ❖ Inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish, ularni ximoya qilish
- ❖ Davlat va fuqarolarning o‘zaro ma’suliyati.
- ❖ Hokimiyat vakolatlarining bo‘linishi.
- ❖ Sudning mustaqilligi.
- ❖ Huquqni muxofaza qiluvchi organlarning samarali ishlashi.
- ❖ Huquqiy madaniyatning yuksak darajasi.
- ❖ Demokratiyaning rivojlanishi va takomillashuvi.

O’QUV TOPSHIRIQLAR

12-Ilova

“Tushunchalar tahlili” texnologiyasida o‘rganilayotgan mavzu yoki uning tarkibiy qismlari doirasidagi asosiy tushunchalar ajratib olinadi va ularga jadval asosida izohlar beriladi.

“Tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Mazmuni
Hokimiyat	
Hokimiyat shakllari	
Hokimiyat resurslari	
N.Makiavelli (qarashlari)	
M.Dyuverji (qarashlari)	
Islomiy hokimiyat	
Iqtisodiy hokimiyat	
Ijtimoiy hokimiyat	
Siyosiy hokimiyat	

“Rezyume” texnologiyasi

Texnologiyaning tasnifi: bu texnologiya murakkab, ko‘p tarmoqli muammoli mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir yo‘la mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalarda muhokama qilinadi. Masalan, ijobiy va salbiy jihatlari, afzallik va kamchiliklari, umumiy va farqli jihatlari va hak.

Texnologiyaning qo‘llanishi: ma‘ruza darslarida, seminar va amaliy mashg‘ulotida yakka yoki guruhlariga ajratilgan tartibda o‘tkazish, shuningdek uyga vazifa sifatida ham berish mumkin.

REZYUME

Hokimiyat tushunchasiga oid eng muhim yondashuvlar					
<i>Pozitiv-sotsiologik</i>		<i>Teologik (diniy nuqtai-nazaridan) talqini</i>		<i>Bixevioristik talqin</i>	
Ustunligi	Kamchiligi	Ustunligi	Kamchiligi	Ustunligi	Kamchiligi
Xulosa:					

Muhokama uchun savollar

1. Siyosiy hokimiyat?
2. Siyosiy hokimiyatning o‘ziga xos jihatlari?
3. Davlat hokimiyati?
4. Hokimiyat va siyosiy hokimiyat tushunchalarining aloqadorligi?

“Muammoli vaziyat” texnologiyasi

Texnologiyaning maqsadi – talabalarga o‘quv predmetining mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning echimini to‘g‘ri topishga o‘rgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqlash bo‘yicha malakalarini shakllantirish, muammoning echishning ba‘zi usullari bilan tanishtirish va muammoni echishda mos uslublarni to‘g‘ri tanlashga o‘rgatish, muammoning kelib chiqish sabablarini va muammoni echishdagi hati-xarakatlarni to‘g‘ri aniqlashga o‘rgatish

“Muammoli vaziyat” texnologiyasi

Muammoning turi “Muammoli vaziyat”	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni echish yo‘llari va unda guruh harakati
Fuqarolarning siyosiy institutlar va tashkilotlarda ishtirokining passivligi		

16-Ilova

Hokimiyatning legitimligi

(Legitimlikning M.Veber talqini bo‘yicha turlari)					
An‘anaviy		Xarizmatik		Huquqiy	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
Xulosa:					

17-Ilova

«Hokimiyat» ,«Siyosiy hokimiyat», «Davlat hokimiyati»	
Umumiy jihatlar	Farqli jihatlar
1. 2.	1. 2.
Xulosa:	

18-ilova


“Davlat hokimiyati” tushunchasini “Idrok xaritasi” texnologiyasi asosida tarmoqlang.

“Idrok xaritasi” texnologiyasi

Bu texnologiya ma’lum bir muammoni yaxlit tasavvur qilish, uning tarkibiy qismlari uzviyligi va bog‘liqligini ko‘rsatib berish, ijodiy yondashishga, tasvir orqali xotirada saqlab qolishga yo‘naltiriladi.

Bu texnologiyaga ko‘ra muammo yoki mavzuning biror rejasi markazga qo‘yiladi va u mohiyatini ko‘rsatib beruvchi rasm, chizmalar, shakllar tarzida ifodalanadi. Bu narsa talabalarni izlanishga, nimadir o‘ylab topishga undaydi va o‘z navbatida muammoning talabalar tasavvurida vaqtoq gavdalanishiga sabab bo‘ladi.

Namuna



Bilimni baholovchi test savollari

1. "Davlat" tashkilotining siyosiy xususiyati qanday izohlanadi?

- A) Davlat jamiyat siyosiy tizimida markaziy o'rinni egallaydi
- B) Davlat hokimiyatni o'ziga eng ko'p mujassamlashtirgan siyosiy tashkilotdir
- V) Jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni echishning eng ko'p imkoniyatlariga egadir
- G) Barchasi to'g'ri

2. Siyosiy hokimiyatning legitimlik xususiyatining mazmuni?

- A) qarorlarning majburiyligi
- B) davlat miqyosida kuch ishlatildan foydalanishning legalligi.
- V) yagona markazning mavjudligi
- G) butun jamiyat a'zolari tomonidan tan olinishi

3. Qanday hokimiyat sotsial zinapoyadagi o'rinlarni: maqomlar, lavozimlar, imtiyozlarni taqsimlash qobiliyatiga ega?

- A) Ijtimoiy
- B) Iqtisodiy
- V) Siyosiy
- G) Majburllovchi

4. Hokimiyatning legitimligi qanday izohlanadi?

- A) Xokimiyatning turli mustaqil tarmoqlarga bo'linishi
- B) fuqarolar tomonidan ijobiy baholanishni va ixtiyoriy tan olinishi
- V) konstitutsiya va qonunlarga asoslanganligi
- G) Barchasi to'g'ri

5. Avvaldan o'rnatilgan tartiblarning buzilmasligi, muqaddasligiga bo'lgan ishonchga, urf-odatlariga binoan qaror topadigan legitimlik turi?

- A) Xarizmatik
- B) An'anaviy
- V) Huquqiy
- G) Ratsional

6. Sharl Lui Monteskening hokimiyatni suiiste'mol qilish imkoniyati bo'lmasligi uchun shunday tartib o'rnatilishi kerakki, unda turli hokimiyatlar o'zaro birbirini tutib turishlari mumkin bo'lsin, degan fikrida nimani nazarda tutgan?

- A) Hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'linishini
- B) Siyosiy liderning to'la avtoritar boshqaruvini
- V) Monarxiya boshqaruvida hokimiyatning meros bo'yicha taqsimlanishini
- G) Respublika tuzumlarida siyosiy partiyalarning hokimiyat o'rinlarini taqsimlab olishlarini

7. Siyosiy hokimiyatning legalligi deganda nimani tushunamiz?

- A) Qarorlarning barcha uchun umummajburiy xarakterga ega ekanligi
- B) Davlat miqyosida oshkora, ochiq kuch ishlata olish
- V) madaniy-axborot imkoniyatlarining kengligi, fuqarolarning davlat boshqaruvidan yiroqlashuvi

G) jamoatchilik fikrini ustunligi, davlat manfaatlarining kengiligi

8. Siyosiy hokimiyat amalga oshirish mexanizmiga ko'ra qanday tarkibiy qismlardan iborat?

A) Rahbarlik, boshqarish, nazorat, tashkilotchilik

B) Legitimlik, rahbarlik, funksionallik, qonuniylik

V) totalitar, avtoritar, demokratik

G) an'anaviy, xarizmatik

9. Qaysi hokimiyat «vakillik» hokimiyati hisoblanadi?

A) qonun chiqaruvchi hokimiyat;

B) ijro etuvchi hokimiyat;

V) sud hokimiyati.

G) A va V.

10. Davlat hokimiyatining mohiyati...

A) fuqarolarga maxsus muassasalar orqali ta'sir etuvchi va ko'rsatmalari muayyan hududda yashaydiganlar uchun majburiy bo'lgan siyosiy institut shaklidir;

B) bir sub'ektning boshqa sub'ektga ta'sir etish qobiliyati;

V) ijro etuvchi vazifasini amalga oshirishdir;

G) nazariy vazifasini amalga oshirishdir;

11. Hokimiyatning qanday turlari mavjud?

A) Siyosiy hokimiyat, majburlovchi

B) Iqtisodiy hokimiyat

V) Madaniy-axborot

G) Barchasi to'g'ri

12. Hokimiyat subektiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

A) Qonun chiqaruvchi, ijro va sud

B) Davlat, partiya, armiya, oila va boshqalar

V) Demokratik, avtoritar, totalitar

G) Iqtisodiy va siyosiy hokimiyat

13. Siyosiy hokimiyatning ijtimoiy manbalari nimalardan iborat?

A) Moddiy ne'matlar, texnika, qazilma boyliklar

B) Vakolatlar, darajalar, lavozimlar, imtiyozlarni taqsimlash qobiliyati

V) Qurolli kuchlar, majburlash institutlari

G) Bilim va axborotlar, fan va ta'lim muassasalari

14. Javoblarda keltirilganlardan qayci biri siyosiy hokimiyatni tashkil etuvchi elementlardan bo'lgan tashkiliy tizimga kiradi?

A) Davlat, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va harakatlar.

B) Siyosiy madaniyat, siyosiy ong, mafkura, jamoatchilik fikri.

V) Siyosiy-huquqiy, tashkiliy, axloqiy me'yorlar.

G) Ommaviy axborot vositalari, kommunikatsiyalar va infratuzilmalar.

15. Legitimlik hukmdorlarga so'zsiz bo'ysunishlariga, ular o'rtasidagi

munosabatlarning norasmiyligiga asoslanishi hokimiyat legitimligining qaysi turiga kiradi?

- A) Oqilona-huquqiy legitimlik.
- B) Xarizmatik legitimlik.
- V) An'anaviy legitimlik.
- G) To'g'ri javob yo'q.

16. Hokimiyatning funksiyalarini bajarishiga ko'ra turlari?

- A) davlat, partiya, kasaba uyushmasi, armiya hokimiyatlari
- B) qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati
- V) Demokratik, avtoritar va totalitar hokimiyatlar
- G) davlat hokimiyati va siyosiy hokimiyat

17. Siyosiy hokimiyat nima?

- a) bu jamiyatga xos bo'lgan kishilar o'rtasidagi irodaga asoslangan munosabatlardir;
- b) bu kishilar ustidan siyosiy hukmronlikdir;
- c) ma'muriy vakolatlarga ega bo'lgan muassasa va idoralardir;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston. 2012.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T. - O'zbekiston. 2010.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T. “Ma'naviyat”, 2008.
4. Ergashev I. va boshqalar. Politologiya. O'quv qo'llanma. -T.; A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.
5. Yusupova G.X., X.J.Jabborov, X.X.Qosimova. Siyosat nazariyasi.-T.:2003.
6. Pugachyov V.P., Solovyev A.I. Siyosatshunoslikka kirish. -T.; Yangi asr avlodi, 2004.
7. B.Aliev va A.Boboev. Politologiya. O'quv qo'llanma. T. 2006.
8. Politologiya. S.Jo'raev muharrirligida.-T.: TDYUI. 2006.
9. Nosirxujaev S. va boshqalar. Politologiya. –T.: “Fan”. 2009.
- 10.Odilqoriev X.T, Razzaqov D.X. Siyosatshunoslik. “O'qituvchi”. Nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T. 2012.
- 11.Davlat va huquq nazariyasi: Darslik / X.T.Odilqoriev, I.T.Tulteev va boshq.; prof. X.T.Odilqoriev tahriri ostida. – Toshkent.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009. – 582 b.
- 12.Saidov A., Tadjixanov U. Davlat va huquq asoslari. T.: O'zR IIV Akademiyasi, 1999, 9-10-betlar.
- 13.YUnusov X. O'zbekiston: siyosiy islohotlar va jahon tajribasi. –T.: SHarq, 2002. — 163 b.
- 14.Qudratxo'jaev SH. O'zbekistonda professional parlament tizimining siyosiy institut sifatida shakllanishi va rivojlanishi istiqbollari.T.: “SHarq”, 2007. - 152 b.
15. www.politnauka.org
16. www.ziyonet.uz
14. www.ziyouz.com
15. www.gov.uz
16. www.pacademy.edu.

